

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

GULIMMETOVA SAODATJON SAMANDAR QIZI

O'zbek adabiyoti kafedrasining

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:



f.f.n. N.Jumaniyozova

Urganch – 2019

MUNDARIJA

Kirish	3
ASOSIY QISM:	
I BOB. MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA FOLKLORDAN FOYDALANISH	9
1.1 Shoir she'riyatida mifologik obrazlardan foydalanish.....	9
1.2. Muhammad Yusufning maqol va hikmatli so'zlardan foydalanish mahorati.....	19
II BOB. SHOIR SHE'RIYATIDA FOLKLORGA XOS OBRAZLAR TASVIRI	29
2.1. Muhammad Yusuf ijodida mifologik asosli ramziy obrazlarning qo'llanilishi	29
2.2. Shoir she'riyatida folklordagi ramziy obrazlarning individual talqini.	44
III Xulosa	50
IV Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	52

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishgan xalqimizning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida yangi davr boshlandi, ma'naviyat masalalariga e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda barcha soha tarmoqlar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha ulkan ishlar qilinmoqda"¹. Ana shu talablar adabiy-badiiy jabhada ham yangicha badiiy tafakkur va tamoyillarni zarur qilib qo'ydi.

Badiiy adabiyotda xalqning ijtimoiy hayoti, ma'naviy-ma'rifiy turmushini tasvirlashda, xususan, uning yanada taraqqiy topishida, xalqchillikning ta'minlanishida xalq og'zaki ijodining o'rnini nihoyatda kattadir. Shu ma'noda yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodining o'zaro munosabatlarini o'rganish adabiyotshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biri bo'lib kelgan.

"Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda"², – deb yozadi Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Darhaqiqat, adabiyot hamma zamonlarda xalq ma'naviyatining bebaho xazinasini bo'lib kelgan. O'zbek she'riyatining taniqli namoyandalari ijodidagi milliy, diniy qadriyatlarni, shuningdek, folklorga xos obrazlarni tadqiq etish, ularning xalq og'zaki ijodidan ta'sirlanishi, erishgan yutuqlari sirlarini o'rganish muhim masala hisoblanadi. Zero, "Folklor an'analari va elementlarini san'atkor o'z ijodiy laboratoriyasida qay darajada ishlab, xalq uchun ahamiyatli, xalqchil asarlar

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi gazetasi. – Toshkent, 2017 yil. 4 avgust.

² Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 11-12.

yaratib, kishilarning ezgu insoniy tuyg'ular bilan tarbiyalashga hissa qo'shishini ko'rsatib berish – adabiyot va folklor aloqalarini o'rganishning asosini tashkil etmog'i lozim"³.

Folklorning yozma adabiyotga ta'siri ham badiiy tafakkur tarixining juda qadimiy an'alaridan biridir. Har bir davr adabiyoti folklorga o'z estetik ehtiyojlari, badiiy imkoniyatlari va talablari darajasida munosabatda bo'lib kelgan. Mumtoz adabiyotimizdan tortib, to bugungi kunda endigina adabiyot olamiga kirib kelgan yosh ijodkorlar asarlarida ham xalq og'zaki badiiy ijodining ta'siri seziladi. Ayniqsa, mustaqillikdan so'ng milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizning unutilgan sahifalarini yoritish muhim ijtimoiy masala bo'lib qolgan bugungi kunda milliy qadriyatlarga, folklor an'alariga e'tibor yanada kuchaydi.

Ijodkor qaysi xalq farzandi bo'lsa, u shu xalq qadriyatlaridan ta'sirlanib ijod qiladi. Adib yoki shoir o'zi bevosita kuzatgan marosimlarni, umrboqiy udumlarni, o'z yurti haqidagi qadimiy rivoyat va afsonalarni ijod jarayonida, tafakkurida sintezlab, yaratilayotgan badiiy asar va she'r kontekstiga singdirib yuboradi. Aslida shularsiz ijodkorning badiiy niyati amalga oshishi mumkin ham emas.

Mustaqilligimiz sharofati bilan milliy va ma'naviy, diniy qadriyatlarimizga e'tibor tubdan o'zgardi. Shu bois hozirgi o'zbek she'riyatidagi xalqchilik, milliylik va xalqona uslubni o'rganish, bugungi kunda har bir ijodkorning folklor unsurlarini badiiy tasvir obyektiga olib kirishdagi badiiy mahoratini kuzatish tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Jahon adabiyoti namoyandalari folklor asarlaridan bahra olib, ulardagi yuksak umuminsoniy g'oyalardan ta'sirlanib, badiiy barkamol asarlar yaratishgan. Har bir shoir xalq og'zaki ijodining rang-barang janrlariga murojaat qilib, badiiy obraz va xarakter yaratishga harakat qiladi. Shu bois, biror-bir shoir yoki yozuvchi ijodi o'rganilganda, folklorga xos uslub, syujet, obraz va tasviriy vositalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Muayyan shoir lirikasi misolida folklor an'alari muammosini tadqiq etish – o'sha davr adabiy jarayonini, muallifning individual uslubi va mahoratini oydinlashtirishga imkon beradi. Qolaversa, har bir shoir yoki yozuvchi

³ Hakimov M. Alisher Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: Fan, 1979. – B.8.

xalq og‘zaki ijodi namunalarini yangicha talqin qilib, o‘ziga xos badiiy-estetik dunyosini shakllantiradi. Shu ma’noda shoirlar ijodini folklor bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganish masalaning naqadar muhim va dolzarbligini ko‘rsatadi.

“Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da’vat etishga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”⁴, – deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov. Darhaqiqat, adabiyot hamma zamonlarda xalq ma’naviyati uchun bebaho xazina bo‘lib kelgan. O‘zbek she’riyatining taniqli namoyandasi Muhammad YUsuf ijodidagi milliy, diniy qadriyatlarni, shuningdek, folklorga xos obrazlarni tadqiq etish, ularning folklordan ta’sirlanishi, erishgan yutuqlari sirlarini ilmiy-nazariy aspektda tadqiq etish bugungi adabiyotshunosligimiz uchun muhim masala hisoblanadi. Bu shoirlar ijodida folklor an’analardan foydalanish muammosi maxsus, fundamental qamrovda o‘rganilmagani ham mavzuning muhim va dolzarbligini anglatadi. Zero, “folklor an’analari va elementlarini san’atkor o‘z ijodiy laboratoriyasida qay darajada ishlab, xalq uchun ahamiyatli, xalqchil asarlar yaratib, kishilarning ezgu insoniy tuyg‘ular bilan tarbiyalashga hissa qo‘shishini ko‘rsatib berish – adabiyot va folklor aloqalarini o‘rganishning asosini tashkil etmog‘i lozim”⁵.

Istiqlol sharofati bilan xalq og‘zaki ijodi, diniy, milliy qadriyatlarimizga munosabat tubdan o‘zgarganligi, e’tibor oshganligi hisobga olinsa, hozirgi o‘zbek she’riyatida xalqchilik, milliylik va xalqona uslubni yuzaga keltirgan asosiy sabablar folklorga borib bog‘lanishi va boshqa shu kabi masalalar mazkur ilmiy muammoni tadqiq etish dolzarbligini yanada yorqin namoyon etadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Folklor va yozma adabiyot munosabati masalasi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, hozirga qadar bu muammo talqiniga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. N.Mallayev⁶, M.Hakimov⁷,

⁴ Karimov I. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 12.

⁵ Hakimov M. Alisher Navoiy lirikasi va xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 8.

⁶ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi (qadim zamonlardan XVII asrgacha): Filol.fanlari d-ri. ... dis. –T., 1963; Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. –T.: Fan, 1974.

J.Qobulniyozov⁸ kabi olimlarning Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy kabi shoirlarning folklordan foydalanish mahoratiga doir tadqiqotlari mavjud. Yozma adabiyotdagi folklorizmlarning badiiy xususiyatlari, manbalari, tasnifi, tipologiyasiga doir B.Sarimsoqov⁹, I.Yormatov¹⁰ kabi folklorshunoslarning qator maqolalari e'lon qilingan. XX asr o'zbek adabiyoti namoyandalari asarlarida folklor elementlarining badiiy talqini masalasi G'.Jalolov¹¹, G'.Mo'minov¹², A.Sabirdinov¹³, L.Sharipova¹⁴ singari tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Ma'lumki, XX asrning birinchi yarmida adabiyotimizda folklor an'analaridan ijodiy foydalanish jarayoni kuzatila boshlandi. Shoir va adiblarimiz o'z badiiy niyatlaridan kelib chiqib, asar personajlari va voqealar talqinining xususiyatlarini ta'minlash maqsadida xalqimizning milliy qadriyatlariga, xususan, folklor asarlaridagi badiiyat durdonalariga murojaat qila boshladilar. Bu ijodiy jarayon hozirgi asrimizda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois folklor va yozma adabiyot munosabati masalasini tadqiq etishda bugungi adabiy jarayonning badiiy-estetik mezonlaridan kelib chiqib ish ko'rish, shoirlarning uslubi va ijodiy o'ziga xosligini ularning folklorga munosabatisiz tasavvur qilish mumkin bo'lmay qoldi. Shu jihatdan qaraganda zamonaviy o'zbek shoirlarning folklor namunalaridan foydalanish mahoratini o'rganish masalasi dolzarb adabiyotshunoslik oldidagi masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Ishning asosiy maqsadi folklor an'alarining hozirgi o'zbek she'riyatiga ko'rsatgan ta'sirini Muhammad Yusuf ijodi misolida ko'rsatib berishdan iborat. Shuningdek, uning xalqona obrazlar va xalq og'zaki ijodi

⁷ Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. –T.: Fan, 1971.

⁸ Qobulniyozov J. O'zbek sovet adabiyotining shakllanish davrida o'zbek folklori (Epik janrlar bo'yicha): Filol.fanlari d-ri. ... dis. –T., 1957.

⁹ Sarimsoqov B. Folklor va yozma adabiyot munosabatlariga doir izlanishlar // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1976. –№5. –B. 85.

¹⁰ Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. –T., 1982. –№ 2. –B. 59.

¹¹ Jalolov G'. Hamza va xalq og'zaki ijodi: Filol.fanlari d-ri. ... dis. –T., 1961.

¹² Mo'minov G'. Hozirgi o'zbek adabiyotida folklorizm: Filol.fanlari d-ri. ... dis. –T., 1994.

¹³ Sabirdinov A. Oybekning poetik mahorati: Filol.fanlari d-ri. ... dis. –T., 2004.

¹⁴ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlar: Filol.fanlari nomz. ... dis. –T., 2008.

janrlaridan foydalanish mahoratini o'rganish, ushbu davr she'riyatida qo'llanilgan folklorizmlarning o'ziga xos jihatlarini yoritish hamda adabiyot va folklor munosabatidagi dinamikani ko'rsatish tadqiqotimizning asosiy maqsadini belgilab beradi.

Tadqiqot vazifalari. Mazkur ish quyidagi vazifalarni hal qilishni ko'zda tutgan:

- o'zbek adabiyotshunosligida folklor an'alaridan foydalanish muammosining o'rganilish tarixini yangi mezonlarda tahlil etish;
- Muhammad Yusuf she'riyatida folklorga xos obrazlar tizimini va ularning individual talqinini o'rganish;
- afsona va rivoyatlarning Muhammad Yusuf she'riyatida tutgan o'rnini tahlil etish;
- Muhammad Yusuf ijodida folklor motivlari hamda bir qator janrlar, jumladan, maqol va matallarning qo'llanilishini tadqiq etish.

Tadqiqot obyekti. Bitiruv-malakaviy ishimizga zamonaviy she'riyat vakili M.Yusufning she'riy to'plamlari asosiy manba qilib olindi. Shuningdek, ish jarayonida ayrim shoirlarning she'rlari ham o'zni-o'zni bilan qiyosiy tahlilga tortildi.

Tadqiqot predmeti. O'ta boy va serqirra milliy qadriyatlarimizdan milliy ruhiyat va milliy xarakter talqinini yaratishda izchil foydalanish mahoratining o'ziga xos jihatlarini ochib berish tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Zamonaviy shoirlar ya'ni Muhammad Yusuf she'riyatida folklor an'alari zaminida shakllangan badiiy timsollar tizimini tahlil etilishi, hozirgi davr she'riyatida maqol-matal, ibora va hikmatli so'zlarning, shuningdek, afsona va rivoyatlarning she'riy asarlar kompozitsiyasida bajargan badiiy vazifasini tadqiq etilishi ishning ilmiy yangiligini bildiradi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Bitiruv-malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi sahifadan iborat.

**I BOB. MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA FOLKLORDAN
FOYDALANISH**

1.1. She'riyatda mifologik obrazlardan foydalanish.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, istiqlool davri adabiyotida milliy, diniy va ma'naviy masalalarni o'rganish yangi pog'onaga ko'tarildi. Milliy istiqlool xalqimizning milliy qadriyatlarini, alalxusus, ezgulik, diyonat, imonga boshlaydigan, xalq badiiy tafakkurining o'ziga xos qirralarini namoyish etadigan folklorni saqlab qolish va yanada rivojlantirish, uni ilmiy aspektda mukammal, haqqoniy tarzda o'rganish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi.

Folklorizmlarning poetik xususiyatlari, tasnifi va tavsifi, manbalari, tipologiyasi masalalarini o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishini B.Sarimsoqov, I.Yormatovlarning ilmiy izlanishlarida ham kuzatamiz. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov folklor va yozma adabiyot munosabatlarini o'rganar ekan, masalalarni chegaralab, terminlarni aniqlashtirib olishga intiladi. Olim shunday yozadi: "Ma'lumki, folklor va yozma adabiyot munosabati o'z ichiga ijodkor asaridagi oddiy folklorizmlarni aniqlashdan tortib, ijodiy metod munosabati, xalqchilik, milliylik va internatsionallik, ijodkorning folklordan ijodiy foydalanish yo'llari va usullari, u yoki bu san'atkor mahoratining yo'nalishi va unda folklor an'alarining ta'siri kabi masalalar bilan birgalikda badiiy shakl sohasidagi o'zaro ta'sir masalalarigacha qamrab oladi"¹⁵.

Olim "Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir" maqolasida folklor va folklorizm terminlariga alohida to'xtalib, yozma adabiyotdagi folklorizmlarni oddiy, murakkab, ayni paytda, murakkab folklorizmlarni o'z ichida analitik, sintezlashgan, stilizatsiyalashgan (uslubiy) tiplarga ajratib tasnif qiladi¹⁶. Adabiyotshunos I.Yormatov esa B.Sarimsoqov fikrlariga tayangan holda oddiy folklorizmlarni asl va qayta ishlangan oddiy folklorizmlarga, murakkab folklorizmlarni esa aynan B.Sarimsoqov tasnifi bo'yicha analitik, sintezlashgan, stilizatsiya-lashgan folklorizmlarga ajratadi¹⁷. Ammo ularning har biriga xos

¹⁵ Sarimsoqov B. Folklor va yozma adabiyot munosabatlariga doir izlanishlar // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. – №5. – B. 85.

¹⁶ Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1980. – №4. – B. 37-45.

¹⁷ Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. – №2. – B. 54-59.

xususiyatlarga to'xtalmaydi. Xullas, XX asrning so'nggi choragida folklorizm hodisasiga munosabat munozarali mavzu sifatida qoldi.

Tadqiqotchi prof B.Sarimsoqov fikrlarini rivojlantirgan holda folklorizmlarni quyidagicha tasniflaydi:

- “1) qo'llanish **davriga** ko'ra: a) mumtoz folklorizm; b) zamonaviy folklorizm;
- 2) qo'llanish **o'rniga** ko'ra: a) badiiy folklorizm; b) publitsistik folklorizm;
- 3) folklorizmlarning **sifatiga** ko'ra: a) oddiy folklorizm; b) murakkab folklorizm ;
- 4) qo'llanish **yo'nalishi va vazifasiga** ko'ra: a) uslubiy-nutqiy folklorizm; b) kompozitsion folklorizm; v) ijtimoiy-etnografik folklorizm”¹⁸.

Ayni paytda tadqiqotchi badiiy adabiyot tarkibidagi analitik folklorizmlarni qo'llanish o'rniga qarab tasnif etilishini mavjud voqelik taqozo qilishini hisobga olib, I.Yormatovning tasnifiga ham munosabat bildirib o'tadi. Bu ichki tasnifda analitik folklorizmlarning asar syujetidagi vazifasi qorishtirib yuborilganligi sababli, munozarali ekanligini ta'kidlaydi. I.Yormatovning stilizatsion folklorizmlar borasidagi fikrlariga qo'shilmaydi: “Agar epik turdagi folklor materialiga dramatik asar sifatida ishlov berilsa, folklorga xos epik bayon uslubiga, albatta putur etadi. Demak, I.Yormatovning bu boradagi nazariy fikri yozma adabiyotda mavjud misollar mohiyatiga to'la-to'kis mos kelmayapti. Bizningcha, stilizatsiya xarakteridagi folklorizmni shu qadar chegaralash o'rinli emas. Chunki mavjud asardagi stilizatsiya holati juda rang-barang”¹⁹. Ayni chog'da L.Sharipova I.Yormatovning fikrlarini to'ldiradi, holatga aniqlik kiritadi. I.Yormatov stilizatsion folklorizmlarning ikki xil ko'rinishini tavsiya etsa, tadqiqotchi to'rt turga(janr, motiv, obraz va ritm stilizatsiyalari) bo'lish lozimligini aytadi.

Folklorizmlarni bunday tasniflash uning tipologik xususiyatlarini aniqlashtirishda katta ahamiyatga ega. Olimlar folklorizmning epik, lirik va dramatik asarlarda qo'llanish doirasini ham to'g'ri ta'kidlaydilar. Binobarin, oddiy folklorizmning qo'llanish doirasi murakkab folklorizmlar (afsona, rivoyatlar, mif, ertak, latifalar)ga nisbatan ancha keng. Chunki lirikaning janriy imkoniyatlari epik va

¹⁸ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlar: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 2008. – B. 29.

¹⁹ Ko'rsatilgan manba. – B. 82.

dramatik tur qamroviga qaraganda torroq bo‘lib, yozuvchi-shoir folklorizmdan foydalanish imkonini uchala tur janrlarida bir xilda istifoda eta oladi, deb bo‘lmaydi. L.Sharipova folklorizm hodisasi mavzusini mukammal o‘rgangan va bahsli mavzularga oydinliklar kiritgan.

Xalq og‘zaki ijodining doston, ertak, afsona, rivoyat va xalq qo‘shiqlari kabi janrlarida mifologik obrazlar muhim o‘rin tutadi. Mifologik obrazlar qadimda insoniyatning tashqi olamga, borliqqa nisbatan ikki xil qarashlari natijasi va tasavvurlari zahirida vujudga kelgan. Adabiyot ilmidagi mif va mifologik obrazlar tizimi, mifologik zamin asosida paydo bo‘lgan ramziy obrazlar, ayni choqda, mumtoz adabiyot genezisida shakllangan an‘anaviy poetik ramziy obrazlar galereyasini o‘rganish, tadqiq etish har doim muhim sanaladi. Xalqning pari, ajdar, dev, yalmog‘iz singari mifologik, shuningdek, mifologik zamin asosida vujudga kelgan o‘rdak, qaldirg‘och, turna, qarg‘a, g‘oz singari obrazlari dastlab og‘zaki ijod janrlari – doston, ertak, qo‘shiq, maqol va matallarda zuhur topgan bo‘lsa-da, bu rang-barang obrazlar yozma adabiyotda ijodkorlar tomonidan muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsadni ifodalash yoki inson xarakteri, turmush va hayot tarzini tasvirlashda keng qo‘llaniladi. Tadqiqotchi S. Hamdamova: “Mif – olamni ongsiz idrok etish natijasida yaratilgan qadimgi tasavvurlarning izchil tizimga solingan ko‘rinishidir”²⁰ degan noto‘g‘ri xulosaga keladi.

Zero, adabiyotshunos A.Musaqulov aytganidek: “Ko‘pgina kishilar bir necha asrlardan buyon miflar insonning tabiat qarshisidagi ojizligi tufayli yaratilgan, degan hukmga moyil bo‘lib kelmoqdalar. Bizningcha, miflar va ularning ta’siri shuning uchun ham yashab kelmoqdaki, ular insonning ojizligi emas, balki tafakkuri, o‘z faoliyati qudratiga, pirovardida ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishiga ishonchining ifodasidir”²¹. Darhaqiqat, insoniyat XXI asrda taraqqiy etgan texnika, shiddatli va sershovqin muhitda yashar ekan, qadim madaniyat va adabiyotdan qancha uzoqlashmasin, baribir inson ruhi, qalbi qadimiy

²⁰ Hamdamova S. Xalq ijodi – ilhom chashmasi. Toshkent: Fan, 2009. – B. 18.

²¹ Jo‘rayev M, Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – B. 4.

mif, afsona va rivoyatlarni shuncha qo‘msaydi. Bu hol insonning ulg‘aygan sari bolaligini sog‘inishiga o‘xshaydi.

Qizig‘i shundaki, XX asrning absurd va modernistik oqimida ijod qilib dong taratgan mashhur shoir va yozuvchilari bevosita o‘sha qadim mifologik model, mifologik obrazlardan foydalanib yozgan asarlari bilan dunyoga tanildilar. Xususan, A.Kamyu, F.Kafka singari yozuvchilar, bugungi kunda mashhur bo‘lib qolgan Paulo Koelo asarlari ham bevosita mifologik model, qadimiy tasavvur va qarashlar asosida yaratilgani bilan xarakterlanadi.

Har bir mifologik obrazning eng muhim belgi va xususiyatlari mavjud. SHuningdek, har bir mifologik obraz xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotda o‘z genezisi va tadrijiga ega. Pari, Dev, Ajdar, Yalmog‘iz yoki O‘rdak, G‘oz, Turna, Qarg‘a singari obrazlar turli janrlarda keng va atroflicha ishlangan.

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Muhammad Yusuf she‘riyatidagi rang-barang obrazlarni o‘rganish va kuzatish natijasida bu obrazlarni shartli ravishda uch guruhga ajratdik:

1. Mifologik obrazlar (Pari, Xizr, Shayton, Yalmog‘iz, Ajina...).
2. Mifologik asosli ramziy obrazlar (O‘rdak, Qaldirg‘och, Turna, Qarg‘a, Ot, G‘oz).
3. Individual talqindagi ramziy obrazlar (Kapalak, Kiyik, Qizg‘aldoq, Rayhon...).

Mifologik obraz hisoblangan pari obrazi nafaqat xalq og‘zaki ijodida, balki yozma adabiyotda ham qadim davrlardan beri keng qo‘llanib kelinadi. Adabiyotshunos K.Imomov bu obraz haqida shunday yozadi: “Pari obrazi olov stixiyasining timsoli, otashkadalarda olov bilan shug‘ullanib shuhrat topgan ayollar ruhining timsollaridir. Qadimiy animik tasavvurda yuzaga kelgan pari va parizod obrazlari mif zahirida paydo bo‘lgan... U go‘zallik ramzi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Olov pari g‘oyat go‘zal, nafis, marhamatli, fusunkor qiz qiyofasida tasvirlangan. Uning pari atalishi olovdan chiqib, otashga singib ketishida amal

qiladi”²². Pari nafaqat, o‘zbek xalqi orasida, balki qardosh xalqlar, qolaversa, evropaliklar orasida ham ma’lum va mashhur obraz sanaladi. “Pari xalq og‘zaki ijodida, uning doston, ertak, qo‘shiq kabi janrlarida asosiy obrazlardan biri hisoblanadi. Ammo pari obrazi uchun etakchi belgi, “pari” so‘zi tilga olinganda xayolimizda zuhur bo‘ladigan ilk tasavvur husn bilan, beqiyos go‘zallik bilan bog‘liq. Demak, pari uchun bosh sifat unga tegishli dastlabki yorliq bu noyob go‘zallik, tengsiz latofat. Pari inson tasavvurining eng nozik, g‘oyat mo‘‘jaz nuqtalarining mahsulidir. U xalq idealidagi go‘zallik olami, tashqi qiyofaning mukammallik timsoli. Pari ko‘zga juda kam ko‘rinadigan, namoyon bo‘lganda esa, o‘zining husn va latofati bilan insonni aqlu hushidan mosuvo etuvchi sohira”²³. Ammo mifologiyada pari – diniy timsol. U og‘ir paytlarda insonga yordam beradi, yoki balolar yog‘diradi. Ularning shaffof, nafis va go‘zalligi esa yozma adabiyotda ramziy ma’noda go‘zallik timsolidir. Shu ma’noda “pari” nomi tilga olinishi bilan T.Xo‘jaev ta’kidlaganidek, tengsiz go‘zallik timsoli ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Bu obrazning xususiyatlarini mukammal tasavvur etish uchun “tengsiz” so‘zini uch xil talqin qilish mumkin. Birinchisi, haqiqatan ko‘plab folklorshunos, adabiyotshunoslar qayd etganlaridek, “pari” obrazi, avvalo, husnda tengsiz, tashqi go‘zal qiyofa timsoli bo‘lsa, ikkinchidan, dunyoning barcha sir-sinoatlarini o‘zlashtirgan bilimdon, olamdagi barcha xoh dunyoviy bo‘lsin, xoh g‘ayb ilmini egallagan obraz hisoblanadi. Uchinchidan, pari oddiy insonlardan (chunki pari inson qiyofasida tasavvur qilinadi) farqli ravishda sehr-jodulovchi xarakterga egaligi bilan xalq og‘zaki ijodida, qolaversa, yozma adabiyotda alohida ajralib turadi. Demak, o‘z-o‘zidan parining ikki xil qiyofasi yaqqol ko‘zga tashlanadi: birda botirlarga rahnamo bo‘lsa, birda rashkchi raqib, gohida bolalarni o‘g‘irlab insonga azob beradi. Xususan, folklorshunos olimlar aniqlagan “Pari obrazi, bir tomondan yovuz kuch, xiyonatkor, jodugarlikka ega bo‘lgan salbiy personaj,

²² Imomov K. Zardo‘shiylik va epik motivlar genezisiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2009. – № 6. – B. 57.

²³ Xo‘jayev T. XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va folklor: Filol.fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 1996. – B. 37.

ikkinchi tomondan, donishmand va go‘zallikka ega bo‘lgan ijobiy personaj sifatida ifodalanadi”²⁴.

“Ma’lumki, parilar sehr-jodu xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, ular odamni sehrlashi, mislsiz go‘zalligi bilan halok etishi ham mumkin deb qaralgan. Afsona va ertaklarda pari yuzidagi niqobini olganda, uning husnu jamolini ko‘rgan qahramon hushidan ketishi yoki devona bo‘lishi motivlari ko‘p uchraydi”²⁵. Shu bois, xalqda aqldan ozgan kishilarni “pari tekkan” deb ham atashadi.

“Parilar oddiy odamlar orasida yashamaydilar. O‘zbek xalqining mifologik qarashlaricha, parilar inson qadami eta olmaydigan uzoq bir yurtda yashaydilar”²⁶, deydi. Haqiqatan ham, xalq ertak va dostonlarida parilar maskani Ko‘hi qof tog‘i atrofidagi Bog‘i Eramda deb ta’riflanadi.

Pari obraziga kiritadigan keyingi oydinligimiz uning tashqi qiyofasida namoyon bo‘ladi. Odatda suvparilarining suvda, suv bo‘yida yashashlari bilan birgalikda sochlarining rangi qora, uzun va yoyilgan holatda bo‘lishi haqidagi turlicha tasavvurlar yuradi.

Bizning nazarimizda, parilar mentalitet jihatdan ham farqlanadi. Jumladan, o‘zbek xalqi tasavvurida pari uzun va qop-qora sochli, nozik qad-qomatga ega, oppoq harir libosli xushsurat ayol sifatida tasvirlansa, evropaliklar uni uzun sariq soch, moviy ko‘zli deb tasavvur qiladi. Bunday tasavvur va talqinlarni har bir xalqning o‘z psixologiyasi, didi va mentalitet, etnogenezi xarakteridan kelib chiqib baholash mumkin.

Xo‘sh, hozirgi o‘zbek shoirlari parini o‘z ijodida qay suratda, qay badiiy-g‘oyaviy maqsadlarga muvofiq holda aks ettirmoqda? Bu savolga oydinlik kiritish lozim.

Muhammad Yusuf “Suvpari” she’rida mifologik obrazning ikki xil turini, ya’ni ko‘kda yashovchi hur-pari va suv ostida yashovchi suvpari obrazini yaratganligiga guvoh bo‘lamiz:

²⁴ Razzoqov H. Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B. 143.

²⁵ Hamdamova S. Xalq ijodi – ilhom chashmasi. Toshkent: Fan, 2009. – B. 49.

²⁶ Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining epik janri. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 131.

Sen ko'kdagi harir ko'ylak, hur-pari,
Ko'k ko'ldagi tinib qolgan suvpari.
Muhammadning ko'nglidagi dilbari,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek²⁷.

Bu she'rda lirik qahramon sevgilisiga muhabbatini izhor qilar ekan, hech kim uningdek seva olmasligini har band oxirida "seni hech kim sevolmaydi meningdek" takroriy refren misralar bilan ta'kidlaydi. Oxirgi badda sevgilisini osmonu falakda yashovchi harir ko'ylak kiygan hur-pariga va ikkinchi misrada esa ko'k ko'ldagi suv ostida yashovchi suvpariga qiyos qiladi. Nima sababdan shoir o'z sevgilisini aynan pari obraziga qiyos qildi ekan? Chunki yuqorida aytib o'tilganidek, lirik qahramonning "ko'nglidagi dilbari" qo'l etmas falakda hur-pari, inson qadami etmas ko'l tubida suvpari misoli hayot kechiradi. Lirik qahramon, garchand uning vasliga eta olmasligini bilsa-da, uni sevaveradi, unga talpinaveradi. Demak, Muhammad Yusuf xalq og'zaki ijodidagi va yozma adabiyotga ko'chgan "pari" obrazining ikki xil hayot tarzidan foydalanib ushbu obrazni yaratgan.

Binobarin, Muhammad Yusuf ham mumtoz shoirlar yaratgan an'analar va folklor ijodining tuganmas xazinasidan oqilona foydalanib, o'z she'riyatida pari obrazining turli qirralarini, xarakterini, qisqasi go'zallik va donolikning tengsiz timsolini, ya'ni pari obrazini yaratadi. Uning she'riyatida "pari" obrazi nihoyatda izchil ishlanganini kuzatish mumkin. Xususan, "O'tinch", "Kelinchak" nomli she'rlarida ham pari obraziga nisbat beriluvchi satrlar uchraydi. Jumladan:

Mulkingizga ne parilar havas etmas,
Yorim ayting, sizga yana nima etmas,
Nechun oydek yuzingizdan qayg'u ketmas,
Hajr azobin siz ham endi totdingizmi? ²⁸

"Kelinchak" she'ri, avvalo, xalq qo'shiqlari uslubida yozilgani bilan xarakterlansa, ikkinchidan, lirik qahramon tez-tez murojaat qilgan, ya'ni qiz bolaning o'zga xonadonga uzatilishi mavzusiga yana bir bor qaytadi. Lirik

²⁷ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 28.

²⁸ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 58 b.

qahramon kelinchakka qarab, unga hatto parilar ham havas qilayotgan bir mahalda, uning oydek go'zal yuzida nechun qayg'uning iztirobli ko'lankasi sababini surishtiradi; ayriliq azobining dahshatini "yor" ham totayotganini aytib ko'nglini yozadi.

Muhammad Yusuf "Yaxshi" nomli she'rida ayolni pariga mengzaydi. Ammo endi bu erda pari – go'zal, o'ziga rom etuvchi, ammo bevafo ayollar timsolida gavdalanadi:

O'pich ko'rgan paridan
Sepkil toshgan yuz yaxshi,
Ichmasang ham qimiz zo'r,
Quchmasang ham qiz yaxshi

Ko'rinadiki, Muhammad Yusuf xalq qo'shiqlariga xos soddalik, teran mazmun, samimiylik, jozibadorlikdan unumli foydalangan holda o'z she'rlarida pari obraziga juda ko'p murojaat qiladi.

Muhammad Yusufning «Yaxshi» radifli she'ri xalq qo'shiqlaridan ushbu satrlarni yodga soladi:

Shamchiroqni yonganidan,
Yonmagani yaxshiroq.
Bevafo yor bo'lganidan,
Bo'lmagani yaxshiroq²⁹

Muhammad Yusufning «O'pich ko'rgan paridan» xunuk qizning yaxshiligini ta'kidlashi xalq qo'shiqlariga xos uslub she'rga xos ohang, turoq, ritm va mazmun aynan xalq qo'shiqlaridan ta'sirlanish natijasida yaratilganini ko'rsatadi.

"Oq ro'mol qizlar" she'rida esa shoir qizlarning yurgan yo'llariga, qadamiga parilar ham havas qilishini ta'kidlash orqali tasvirda emotsional ta'sirchanlikka erishadi. Zero, parilar nurdan yaratilgan bo'lsa-da, qizlarning nur kabi sofliğiga ular ham oshiq :

²⁹ Shoda-shoda marvarid: O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – 158 b.

Yursa yo‘lga yog‘dular izi,
Parilarga orzular izi.
Siz – onamning yorishgan yuzi,
Siz – otamning yo‘qotgan qizi...
Oydin qizlar, oyjamol qizlar,
Oydan tushgan oq ro‘mol qizlar³⁰

Shoir xalq dostonlaridagi Alpomish, Rustam, Go‘ro‘g‘li, Avazxon kabi qahramonlarning engilmasligini botinan anglagan holda xalq og‘zaki ijodida kuylangan g‘oyani o‘z davri kishilari taqdiri bilan bog‘laydi. Ertak va dostonlardagi singari xiyonat tufayli halok bo‘lgan afsonaviy qahramonlarning hayoti barcha davrning mard va jasur kishilari uchun ham xosligini ta’kidlaydi. Shoir xalq dostonlari va afsonalarida kuylanganidek, haqiqiy jasur kishilar har qanday qonli jangu jadallardan eson-omon o‘tishini, biroq, xiyonatkor qo‘rqoqlar pahlavonlar hayotiga zomin bo‘lib qolishini falsafiy satrlarda poetik aks ettiradi. Xiyonat makon va zamonda birdek o‘zgarmas ekanligini e’tirof etadi

Muhammad Yusuf ijodida mifologik obrazlar masalasini o‘rganish natijasida quyidagi dastlabki xulosalarga kelish mumkin:

– o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi pari, Xizr, yalmog‘iz, ajdar singari mifologik obrazlar kishilar hayotining muayyan timsolli obrazlari sanaladi, jumladan, go‘zallik, sehr-jodulik (Pari), madadkor (Xizr), xiyonat, fisqu fasod (Shayton), ochko‘zlik va yovuzlik (Yalmog‘iz, Ajdar) singari ma’lum poetik obrazlar sifatida bugungi o‘zbek she’riyatida aks etadi;

– qadimiy ildizga ega bo‘lgan bu mifologik obrazlar hozirgi o‘zbek she’riyatida ba’zan sayqallangan poetik obraz, poetik sifatlash, poetik tasviriy vosita sifatida namoyon bo‘ladi;

– mifologik obrazlar xalq ijodida tutgan badiiy vazifasidan farqli ravishda bu obrazlar hozirgi o‘zbek she’riyatida ramziy obraz, timsol vositasi bo‘lib xizmat qiladi;

³⁰ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 145 b.

– bu mifologik obrazlar shoirlar she’rida yangicha mohiyat bilan poetik fikrning kuchliroq ifodasiga badiiy quvvat bag’ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yozma adabiyotda folklor an’analari muammosining o’rganilishi bugungi adabiyotshunosligimiz uchun yangi mavzu emas. Har bir ijodkor folklor namunalaridan, xalq tili boyliklaridan, ifoda va tasvir imkoniyatlaridan individual ravishda foydalanar ekan, tabiiy ravishda har bir ijodkorning o’ziga xos mahoratini o’rganish masalasi paydo bo’ladi. Yozma adabiyot bilan folklorning o’zaro munosabatini o’rganish, ma’lum shoir va yozuvchilar ijodiy faoliyatida xalq og’zaki ijodining ta’sirini tadqiq etish esa davr adabiy jarayonini to’laroq tasavvur qilishga imkon beradi.

Folklor va yozma adabiyot munosabatini o’rganish XXI asrda ham dolzarb muammolardan biri sifatida adabiyotshunoslikning ajralmas qismi sifatida rivojlanmoqda. Zamonaviy shoir va yozuvchilar ijodida xalq ijodi, mumtoz adabiy an’analarning o’rni ilmiy-nazariy aspektda o’rganildi. She’riyatda musiqiylikni vujudga keltiruvchi ritm, qofiya, band, so’z takrori intonatsiya kabi vositalar shoirlar she’rlari misolida tahlil qilindi. Hozirgi o’zbek she’riyatida oddiy, murakkab, uslubiy folklorizmlarning qo’llanilishi, folklorga xos til, uslub, xalqchilik, milliylik, soddalik, masalasi individual ijodkorlar ijodi misolida tadqiq etilmoqda.

Xalq orasida mavjud bo’lgan mifologik qarashlar, olqish va qarg’ishlar, frazeologik birikmalar, kinoya va kesatiqlar, shevaga oid so’zlar yozuvchi asarlarida mahorat bilan tasvirlanganligi ko’rsatib berilmoqda. Folklorizm atamasining qo’llanilishi, mohiyati va tasnifi masalasi batafsil tekshirildi, folklorizmlarni oddiy, murakkab va stilizatsion folklorizmlarga ajratib, janr, motiv, obraz, ritm stilizatsiyalarining har biri alohida o’rganildi.

Hozirgi zamon o’zbek she’riyatidagi uslubiy izlanishlar borasida rang-barang tasniflar, qarashlar mavjud bo’lib, bu qarashlar mohiyatida davr poeziyasining yo’nalishlari ko’rsatib berilmoqda.

1.2 Muhammad Yusufning maqol va hikmatli soʻzlardan foydalanish mahorati.

Xalq ogʻzaki ijodi bilan yozma adabiyot doimiy ravishda oʻzaro taʼsirga ega. Folklor har bir davr yozma adabiyoti uchun bebaho xazina boʻlib xizmat qiladi. Prof. N.Mallaev yozma adabiyot va xalq ogʻzaki ijodining oʻzaro munosabatini tadqiq etar ekan: “Xalq ogʻzaki ijodining ilk tajribalari badiiy soʻz sanʼatining keyingi bosqichlaridagi rivojiga maʼlum zamin tayyorlaydi va yozma adabiyotga boy manba boʻlib xizmat qiladi” degan ijobiy xulosaga keladi³¹.

Har bir ijodkor folklor asarlari syujeti, kompozitsiyasi, anʼanalari, tili, uslubi, rang-barang janrlari, jumladan, maqol, matal, soʻzlashuv uslubiga xos ifoda va iboralardan istagancha foydalanib, oʻz asariga yangicha ruh va mazmun bagʻishlaydi. Shu tarzda yangi bir badiiyat namunasining xalqchilligi, milliyligi, oʻqishli boʻlishi taʼminlanadi.

Bizningcha, gap ijodkorning folklor namunalaridan oʻz asarlarida qay darajada foydalana olishida, uni oʻz badiiy tafakkuri orqali ijodiy sintez qilib, asar mohiyatiga singdira olishida. Agar yozuvchi va shoir folklordan mohirona foydalana bilmasa, bunday asar folklor soyasida qoladi. Vaholanki, yozma adabiyot vakili kollektiv ijoddan ancha yuqori boʻlgan zamonaviy, badiiy-estetik talablarga javob bera oladigan adabiyot yaratishi darkor. Bu borada prof. B.Sarimsoqov shunday fikrni ilgari suradi: “Qadimgi bobolarimiz ogʻzaki ijodidagi obrazlarda inson ruhining qorongʻu goʻshalari, dilidagi murakkab kechinmalari va tuygʻularning barchasi N.G.Chernishevskiy iborasi bilan aytganda, qalb dialektikasi, realistik adabiyotdagidek emas. Chunki, xalq ogʻzaki badiiy ijodida tasvir va ifoda vositalari yozma adabiyotdagidek chuqur ochilmagan. Bundan tashqari xalq ogʻzaki badiiy ijodida tasvir ham badiiy ifoda usullari, tamoyillari muayyan darajada qoliplik xususiyatiga ega”³². Shuningdek, olim xalq ogʻzaki ijodiyotining realistik adabiyot uchun “bebaho mezon” ekanini ham eʼtibordan chetda qoldirmagan: “Biroq bu holat badiiy obrazni tashkil etuvchi voqelik hamda

³¹ Mallaev N. Oʻzbek adabiyoti tarixi (qadim zamonlardan XVII asrgacha). Filol. fanlari d-ri ... diss. – Toshkent, 1963. – B. 45.

³² Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. – B. 10.

kishilar xatti-harakatidagi, dili va ongidagi mohiyatini aks ettirish yoki ifodalash kabi estetik qonuniyatlardan folklor mahrum, degan xulosaga kelishga imkon bermaydi.

Aksincha, asrlar qa'ridan bizga nur sohib, ongimiz va ruhimizni parvozga undab turgan ajdodlarning badiiy obraz, binobarin, badiiylik haqidagi tasavvurlarini, ular yaratgan badiiy obrazlar mohiyati, vazifasi, me'yori, shakli va estetik darajasini belgilashda biz bebaho mezon sifatida olib qaraymiz”³³.

Eng kichik ibora ham ming yillar davomida yashab qolishi uchun, ming bitta chig'iriqdan o'tib, haqiqat oynasida aks etgan, hayot tajribasida ma'qullangan bo'lishi lozim. Shunday ekan, xalq og'zaki ijodiy merosi hamisha yozma adabiyotning bebaho injusi bo'lib qolaveradi.

Ma'lumki, yozma adabiyotda xalq og'zaki ijodining eng faol turlaridan bo'lgan maqol va iboralar juda keng qo'llanadi. Prof. N.Mallaev o'z tadqiqotida xalq maqollari, hikmatli so'zlariga alohida to'xtalib, jumladan, Yusuf Xos Hojib dostonini tahlil etish jarayonida shunday xulosaga keladi: “Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig”da juda ko'p xalq maqollari va hikmatli so'zlarni ishlatadi... U maqol va hikmatli so'zlarni ba'zan aynan va ba'zan she'riy misralarning poetik talabiga qarab o'zgartirib qo'llaydi. Maqol va hikmatli so'zlar dostonning g'oyaviy mazmunini boyitadi, badiiy qimmatini oshiradi”³⁴.

M.Hakimov “Yozuvchi va xalq tili” monografiyasida maqol va aforizmlarning o'zbek yozuvchilari ijodida qo'llanilishiga oid quyidagi fikrni bayon etadi: “Yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakterlar yaratadi. Obraz va xarakterlarning tipik va individual bo'lishi ularning turli-tuman tasviri vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog'i bo'lgan xalq aforizmlari – maqol, matal, hikmatli so'zlar, iboralar badiiy-tasviriylar qurol bo'lib xizmat qiladi”³⁵. Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodidagi maqol va hikmatli so'zlar yozuvchi va shoir uchun badiiy asar tilini boyitishda asosiy qurol vazifasini o'tashi tayindir.

³³ Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. – B. 11.

³⁴ Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi (Qadim zamonlardan – XVII asrlargacha). I kitob. – B. 132.

³⁵ Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. – B. 22.

Shoirларimiz ijodini tahlil etar ekanmiz, kutilmagan tarzda poetik talabga muvofiq o'zgartirilgan xalq maqollari, matal va iboralarini uchratamiz.

Muhammad Yusuf "Uch o'g'il va bir qiz qissasi"da "Kambag'alning og'zi oshga etganda, burni qonaydi" maqolini she'r talabi, matn ekspressivligini oshirish maqsadida biroz o'zgartirib qo'llaydi:

Hayot har o'yiniga
O'zi topar ta'rifi:
Og'zi oshga etganda
Burni qonar g'aribning³⁶

Muhammad Yusuf maqol matnida ishlatilgan "kambag'al" so'zi o'rniga "g'arib" sinonimini qo'llar ekan, bu bilan she'rning o'quvchiga ta'sir etish darajasini oshirib nozik ma'no ottencasini berishga erishadi. «G'arib» so'zi kambag'al ma'nosini berish bilan birgalikda she'r qahramoni Mo'min cholning nochor ahvolini ifodalab, jonli real tasvirga, emotsianallikka va matn ekspressivligiga erishishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Qolaversa shoir misrada inversiya hodisasini ham qo'llaydi. Ya'ni aslida "kambag'alning og'zi oshga etganda burni qonaydi" maqoli matnidagi "kambag'al"ning sinonimi "g'arib" leksemasi misra oxirida qo'llanadi. Kambag'alni hamisha qandaydir g'am-tashvish ta'qib etishini anglatadigan ushbu maqoldan Muhammad Yusuf o'ziga xos ustalik bilan foydalanadi.

O'zbek xalqi bolajon millat bo'lgani uchun xalq orasida "o'nta bo'lsa o'zni boshqa" degan maqol bor. Bu maqolda farzand son jihatdan ko'p bo'lsa-da, har birining oiladagi o'zni, qilig'i, xarakteri, fazilati alohidaligi ta'kidlanadi.

O'nta bo'lsa o'zni boshqa uning-chun:
O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun,
Qizim parilardan chehrasi gulgun,
Yuzlari lolam deb yashaydi o'zbek³⁷

³⁶ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 187 b.

³⁷ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 189 b.

Shoir ijodida she'riyatida ona vatan va millat haqidagi she'rlar miqdor jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi. Yuqoridagi she'riy parchada ham shoir o'zbek xalqining bolajon ekanini sodda, xalqona misralarda ifodalaydi.

Muhammad Yusuf she'riyatida xalq og'zaki ijodining yor-yor, o'lan, lapar janrlari ham alohida o'rin egallaydi. Jumladan, uning "O'lan" she'rida xalqona fikr, tuyg'u jo'shib turadi. Muhammad Yusuf she'riyatidan o'rin egallagan o'lan, yor-yorlar mazmun jihatdan xalq og'zaki ijodidagi ayni janrlardan farqlanib turadi. Ularda shoir yangicha poetik obrazlar, tasviriy ifodalarni qo'llaydi:

To'ylarni hammadan ham
Bo'y qizlar xush ko'rarmish.
Bitta qiz erga tegsa,
Qirqtasi tush ko'rarmish³⁸

To'y o'zbek xalqining eng yaxshi, eng ezgu marosim-bayramlaridan biridir. To'y garchi ikki yoshga tegishli bo'lsa-da, butun mahalla yoshlari hayajonga tushadi. Shu sabab, shoir xalq orasida yurgan qadim: "Bitta qiz erga tegsa, qirqtasi tush ko'radi", degan naqldan foydalanib, hayajonga tushayotgan qizlarning ruhiy holati tasvirini she'rga singdirib yuboradi.

Umuman, shoir ijodida to'y marosimi, qiz uzatish bilan bog'liq bo'lgan "O'lan", "Palaxmon", "Ota uy", "Kelinchak", "To'y kechasi", "Chimildiq" kabi she'rlari mazmunan bir-biriga hamohang she'rlardir.

O'zbek xalqi qiz bolaning o'zga xonadon, o'zga yurtga kelin bo'lib ketishini palaxmon toshining otilishiga o'xshatadi. Shunga ko'ra xalq orasida "Qiz bola – palaxmon toshi" degan naql ma'lum va mashhur.

Yuqoridagi maqolda "palaxmon toshi" so'z birikmasi ramziy ma'noda ishlatilgan. Chunki palaxmondan otilgan toshning qaerga borib tushishi noma'lum bo'lganidek, bo'y etib, qiz bolaning qaysi yurt, kimning xonadoniga kelin bo'lib tushishi ham shunchalik darajada mavhum.

³⁸ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 182 b.

Muhammad Yusuf xalqning ana shu maqoli mazmunidan foydalanib, “Palaxmon” she’rini yozadi.

Osmon erga engashib,
Bulut sog‘di kun bo‘yi,
Yolg‘onchi yor to‘yida
Yomg‘ir yog‘di kun bo‘yi.
Yomg‘ir emas, bu xalqob
Kelinchak ko‘z yoshidir.
Yig‘lama yor, *qiz bola*
Palaxmonning toshidir³⁹

Avvalo, she’r xalq ijodida keng tarqalgan yor-yor uslubini esga soladi. Biroq Muhammad Yusuf yor-yor janrining ma’no va mohiyati, qolaversa, xalq maqolining teran mazmunidan foydalanib, yangicha ijodiy izlanish qiladi. Garchi osmonning engashib bulut sog‘ishi mantiqqa zid kelsa-da, yomg‘irning bulutlardan sog‘ilib tushishi yor yig‘isiga chiroyli o‘xshatish bo‘lgan. Xalq ijodida yor ba’zan “yolg‘onchi” sifatlashi bilan birga qo‘llanadi. Sababi kelinchak o‘zga bilan ahdu paymon qilib, ota-ona roziligi bilan boshqasiga tegmoqda. Muhammad Yusuf xuddi shuning uchun “yolg‘onchi yor”ga murojaat qilar ekan, yomg‘ir yog‘ishi bilan kelinchakning ko‘z yosh to‘kishini parallel holatda tasvirlaydi. Binobarin, real hayotiy voqelik badiiy tasvir mantig‘i uchun xizmat qiladi. Shoir ko‘nglida o‘zga yorning muhabbati bilan o‘rtanayotgan kelinchakka achinib, hamdardlik izhor qiladi. O‘zbek xalqining mashhur naqli bo‘lmish “qiz bola palaxmon toshi” ekanini eslatib, uni yupatadi. Shoir keyingi bandda sevishganlarning ayrilishiga sabab faqat taqdir emas, yorning go‘zalligi, shuningdek, qiz bolaning taqdiri palaxmon toshi kabi ekaniga yana bir bor urg‘u berib, ilgari surayotgan badiiy falsafasini ishonarli tarzda asoslaydi:

Taqdir emas, ayirgan,
Yorning qalam qoshidir.

³⁹ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. –87 b.

Qolaversa, qiz bola

Palaxmonning toshidir ⁴⁰

Xalq orasida uzatilgan qizga “Borgan joyida toshdek qotsin” deb fотиha berishadi. Sababi – tosh og‘ir jism. Tushgan joyida mustahkam o‘rnashadi. Shuning uchun o‘zbeklar qizlarni o‘zga xonadonga uzatishar ekan: “Toshdek qotib, o‘zidan ko‘paysin” deb duo qilishadi. Hatto bir marta turmush qurib qaytib kelgan qiz bolani ikkinchi bor uzatishganida orqasidan tosh otib qolishadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, qiz bolaning ortidan tosh otilishi singari xalq udumlarida ramziy ma’no bor, albatta.

Agar e’tibor berilsa, “qiz bola palaxmon toshi” naqli ikkinchi marotaba to‘rtinchi bandda to‘lig‘icha takrorlanadi. “Palaxmon” she’ri 7 bo‘g‘inli barmoq vaznida yozilgan bo‘lib, bu xalq lirik qo‘shiqlariga xos sodda bo‘g‘in va turoqdan tashkil topgan.

“O‘zbek xalq qo‘shiqlarining keng tarqalgan turlaridan biri “yor-yor”dir. Muhammad Yusufning ham “Yor-yor” degan she’ri bor. Lekin bu an’anaviy yor-yorlardan emas. Bu she’rda sevimli qizning o‘zga yigitga turmushga chiqayotganligi tufayli lirik qahramon qalbidan portlab chiqqan alamnok tuyg‘ular o‘z tasvirini topgan”⁴¹. Demak, “Yor-yor” mazmunan “Palaxmon” she’ri bilan hamohang. Chunki har ikkala she’rda ham sevikli yor o‘zgaga turmushga chiqish holati tasvirlangan.

Nazariy jihatdan folklorda o‘lan janri yor-yor janrining bir turi hisoblanadi. «Yor-yorlarda kelin bo‘lib yot xonadonga uzatilayotgan qizning ahvoliga achinish motivlari kuylanadi...ularda begona xonadonga uzatish qismati barcha qizlar uchun qismat ekanligi, bu qismatga esa qizlarning ko‘nishi hayot qonuniyati ekanligi ham ritmik-sintaktik parallelizm vositasida ta’sirchan kuylangan»⁴².

Demak. Muhammad Yusuf xalq o‘lanlaridan ta’sirlangan holda «Yor-yor» she’rini yaratgan, desak xato bo‘lmaydi:

⁴⁰ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 88 b.

⁴¹ Karimov N. Muhammad Yusuf va hozirgi zamon o‘zbek she’riyati // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. – №5. – B.18.

⁴² Nosirov R. Xalq qo‘shiqlari kompozitsiyasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 114-115.

Osmon olis, osmon jim,
Marhamatda qor yog‘ar.
Seni qanday sevardim,
Ko‘rolmadi qarg‘alar.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,
Jonim qaqshar, yor-yor.
Qayda bo‘lsang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...

Osmon olis, osmon jim,
Osmon quloq soladi:
Yuragimni sog‘inchim
G‘ijjak qilib chaladi ⁴³

Ushbu “Yor-yor” she’rida “Hay-hay o‘lan, jon o‘lan” misrasi bilan boshlanuvchi band uch marta aynan takrorlanadi. Bunday uslub esa xalq lirik qo‘shiqlariga xos an’ana. Shuningdek, shoir qolgan uchta bandning birinchi “Osmon olis, osmon jim” misrasini aynan takror ishlatar ekan, bexos xalqimizning “osmon uzoq, er qattiq” maqoli xotirimizga keladi. Lirik qahramon shu darajada ilojsiz, dilgir va aziyat chekkan. Uning dard-iztiroblari eru ko‘kka sig‘maydi. “Osmon uzoq, er qattiq” maqolida avvalo chorasizlik holati bitta jumlada mujassam topgan. Shu bois shoir o‘z iztiroblarini yonib kuylar ekan, “Osmon olis, osmon jim” misrasini takror berish orqali o‘z anduhining osmon qadar cheksiz va adoqsiz ekaniga urg‘u beradi, shu bilan bir qatorda lirik qahramon dardi olis osmonga etib bormasligi, osmon jimligi – dardkash bo‘la olmayotgani alamli bir tarzda ifoda etiladi .

Shoir o‘z she’rlarida xalq og‘zaki ijodi an‘analarini, shuningdek, katta avlod shoirlarining ijodiy an‘analarini izchil davom ettirib o‘zbek xalqining donishmandona maqol va aforistik iboralaridan ijodiy foydalanadi.

⁴³ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 62-63 b.

Shu bilan birga “Yor-yor” she’rida uchta yangi poetik obraz yaratilgan. Birinchisi, N.Karimov ta’kidlab o’tgan “qarg’a” obrazidir. Zero, olim bu poetik obraz xususida quyidagicha fikr yuritadi: “Agar bu satrlardagi *qarg’alar* so’zi *qor yog’ar* so’zlari bilan qofiyaga kirishmagan bo’lsa, uning sevgi mavzusidagi she’rdan o’rin olishi qarg’aning lirik qahramon sevgisiga shohid bo’lmaganligi bilan bog’liq armon kitobxonda g’alati bir taassurot qoldirishi mumkin. Ammo birgina shu obraz orqali lirik qahramonning muhabbati osmonida qora bulutlarning to’plangani va uning uchun sovuq kunlar kelganini ifodalashga erishadi”⁴⁴.

Bizningcha, qarg’a noxush xabarchi ramziy ma’noda emas, balki bu obrazga ichi qora, sevishtanlarni ko’rolmaydigan, g’iybatchi kimsalarga nisbat berilgan. Shoir keyingi bandlarda ham yangicha original poetik obraz yaratadi. Jumladan, uchinchi bandda: “Yuragimni sog’inchim g’ijjak qilib chaladi”, deydi. Ushbu misralarda sog’inch hissi yurakni g’ijjak qilib chalinishiga o’xshatilishi shoirning individual poetik kashfiyoti hisoblanadi. Binobarin, g’ijjak chalinganda yurakni ezadigan mungli tovush chiqaradi. Bu esa shoir yuragini kemirib, ado qilayotgan sog’inch hissini badiiy ifodalashga xizmat etgan.

Oxirgi bandda ham shoir uchinchi bir poetik kashfiyot qiladi, ya’ni uning nazarida osmon yulduzlarni go’yoki ko’rpa-to’shak singari to’shaydi, xalq qo’shiqlariga xos sodda “Bilagingda barmog’im izi borga o’xshaydi” misralari bilan shoir xalqona uslubda she’rni yakunlaydi.

Muhammad Yusuf ijodida folklorizmlarni o’rganar ekan, tadqiqotchi L.Sharipova shoirning “Lolaqizg’aldoq” she’ridan

Endi osmon yiroq,

Endi er yumshoq,

misralarini uzib olib tahlil qilar ekan, quyidagicha xulosaga keladi: “Shoir qofiya bois “qattiq” so’zini “yumshoq” so’zi bilan almashtirib, maqol mohiyatiga putur etkazadi”⁴⁵.

⁴⁴ Karimov N. Muhammad Yusuf va hozirgi zamon o’zbek she’riyati. – B.18.

⁴⁵ Sharipova L. XX asrning 70-80-yillar o’zbek she’riyatida folklorizmlar: Filol. fanlari nomzodi. diss. avtoref – Toshkent, 2008. – B. 11.

“Lolaqizg‘aldoq” she’ri Muhammad Yusufning Shavkat Rahmon xotirasiga bag‘ishlab yozgan she’ri bo‘lib, she’r Shavkat Rahmon tilidan bayon etiladi. Lirik qahramon dunyodan ketar vaqtini his etgan, lolaqizg‘aldoqqa dardini aytish barobarida barcha armonlarini, iztiroblarini, o‘kinchini bayon etar ekan, ahvoli shunchalar tangki, osmon olis, er esa bag‘riga olish uchun tobora yumshab bormoqda. To‘g‘ri, xalqda yaxshi odamning qabri keng va qazilganda er yumshab oson kovlanishi haqida qarashlar bor. Ammo shoir urning yumshoqligini lirik qahramonning dilgir holatidan turib tasvirlaydi. Qolaversa, lirik qahramon marhum emas. Tadqiqotchi agar bandni to‘liq tahlil qilganida shoir maqol mazmunini shunchaki qofiya uchun buzmaganiga amin bo‘lar edi. Bandni keltiramiz:

Ko‘ksim kuyib borar,
Ko‘krak yonmoqda,
Ayting do‘xtirlarga,
Yorishsa yorsin!
Jism o‘z ulfati –
Jondan tonmoqda.
Bechora jon endi
Qaerga borsin.
Endi osmon yiroq,
Endi er yumshoq
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq⁴⁶

Shoir poetik talab va maqsadga ko‘ra xalq maqollari, matallaridan foydalanar ekan, ba’zan ayrim so‘zlarning sinonimik va leksik variantlarini qo‘llaydi. Bu esa she’riy misrada shoirning o‘ziga xos badiiy-g‘oyaviy maqsadini amalga oshiradi. Ya’ni she’rda sinonimik va leksik variantlar qofiya yoki poetik ta’sirchanlikni ta’minlaydi.

⁴⁶ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 274 b.

Xalq maqollari she'r mazmunini boyitib, asosiy g'oyani o'quvchiga ta'sirchan etkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. She'riyatda xalq maqollari ba'zan to'liq holda, ba'zan esa ma'lum bir qismi she'riy misralarda ishtirok etar ekan, bu ham shoirning o'ziga xos uslubi va mahoratini belgilaydi. Shoir xalq maqollariga ijodiy yondashib, ularni ba'zan o'zlashtirma gap shaklida qo'llasa, ayrim hollarda ijodkor o'zi xalq maqollariga o'xshash she'riy hikmatomuz misralar bitadi. Ayni shu jihatlar shoir iste'dodining yorqin dalilidir.

Har bir shoir xalq maqollari va hikmatlaridan foydalanar ekan, ularga shoir o'z ijodiy mahorati va e'tiqodidan kelib chiqib yondashadi. Bu esa oddiy folklorizmlarning she'riyatda qo'llanishi har bir shoir ijodiy individualligini alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

II BOB. SHOIR SHE'RIYATIDA FOLKLORGA XOS OBRAZLAR TASVIRI

2.1. Muhammad Yusuf ijodida ramziy obrazlarning qo'llanilishi.

Ramziy obrazlar san'atning barcha turlarida muhim o'rin tutadi. Folklorshunos Sh.Turdimov bir qator maqolalarida o'zbek xalq lirik qo'shiqlarida xabarchi ramzlar, qolaversa, ramz va istiora o'rtasidagi farqlarni, o'zak ramzlar va ramz aniqlanmalarini o'rganadi⁴⁷. Tadqiqotchi o'zbek xalq lirik qo'shiqlaridagi ramzlar tabiati haqida shunday yozadi: "Turmushda va fanda ramzlar kommunikativ funksiya bajarsa, san'atda ular estetik funksiya bajaradi (kommunikativ funksiyasi ikkinchi planga ko'chadi). O'z navbatida, san'at turlari, janrlari ichida ham ramzlar har bir tur va janr imkoniyatlariga ko'ra farqlanadi"⁴⁸. Sh.Turdimovning ramzlar tarixini o'rganish borasidagi ishlari diqqatga sazovor. Garchi bu ilmiy izlanishlar folklor ijod doirasida kechsa-da, ularni hozirgi o'zbek she'riyatiga ham tatbiq etish mumkin.

Olim xabarchi ramzlar tarixini o'rganar ekan, ramzlarning paydo bo'lishiga ko'ra ikki qismga ajratadi:

- 1) mifologik zamin asosida paydo bo'lgan ramzlar (qarg'a, g'oz, o'rdak, qaldirg'och, turna);
- 2) mavjud an'anaviy ramzlar shakli asosida paydo bo'lgan yangi ramzlar (samolyot va "bulut")⁴⁹.

Shu jihatdan hozirgi o'zbek shoirlari ijodida turli qushlar, tabiat hodisalari, hayvonlar kabi ramziy obrazlarning har biri muhim ahamiyat kasb etishi tabiiydir. Binobarin, Muhammad Yusuf ijodida o'rdak, g'oz, qaldirg'och, turna, qarg'a singari mifologik zaminga ega obrazlar uchraydi. Bu xilma-xil obrazlarning folklor ijod namunalarida tashigan badiiy-g'oyaviy jihatlari, afsona va ertaklardagi

⁴⁷ Turdimov Sh. O'zbek xalq lirik qo'shiqlaridagi "xabarchi" ramzlar haqida ba'zi mulohazalar // Adabiy meros. – Toshkent, 1984. – №3. – B.91-94; Lirik qo'shiqlarda ramz // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. – №3. – B.16-19; Tom ustiga tom soldim // Yoshlik. – Toshkent, 1988. – №7. – B. 75-76; Ro'mol ramzining semantikasi haqida // Adabiy meros. – Toshkent, 1985. – №3. – B.94;

⁴⁸ Turdimov Sh. Lirik qo'shiqlarda ramz // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. – №3. – B.16.

⁴⁹ Turdimov Sh. O'zbek xalq lirik qo'shiqlaridagi "xabarchi" ramzlar haqida ba'zi mulohazalar // Adabiy meros. – Toshkent, 1984. – №3. – B.94.

mifologik asoslarining o'rganilishi, ularning bugungi she'riyat bilan bog'lanishi ushbu tadqiqotning eng asosiy qirralari jumlasiga kiradi.

Sh.Turdimov "o'rdak" obrazining xalq lirik qo'shiqlaridagi ramziy ma'nosi xususida: "Ma'lumki, inson tafakkurining tetapoya davrida narsa va hodisalar dualistik nuqtai nazardan baholangan kishilar tasavvurida ikki kuch – yovuzlik va ezgulikning nihoyasiz kurashidan iborat bo'lgan ("Avesto" aynan shu Axuramazda (ezgulik) va Axriman (yovuzlik) kurashini izohlovchi asar). O'z navbatida dualistik qarash o'rdakni g'ozning muqobiliga – yovuz kuchlarning xabarchisiga aylantirgan. "G'oz" va "O'rdak"ning mifologik tasavvurlar asosida epos va iboralarda saqlanib kelinayotgan "xabarchi" ma'nolari xalq qo'shiqlarida ham keng qo'llaniladi" deb yozadi⁵⁰. Darhaqiqat, tadqiqotchi ta'kidlaganidek, xalq qo'shiqlarida o'rdak obrazi bo'hton tarqatuvchi, g'iybatchi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan:

Tom ustida nelar bor, hey lola.

O'rdak bilan g'ozlar bor, hey lola.

O'rdak ketib, g'oz qolsin, hey lola.

Dushman ketib, do'st qolsin, hey lola⁵¹

Qo'shiq mazmunidan anglashiladiki, o'rdak – dushman, g'oz – do'st ramziy obrazi sifatida talqin qilinadi.

Muhammad Yusuf xalq qo'shiqlarida o'rdak va g'oz obrazining ramziy ma'nolarini yaxshi anglagan holda o'z she'rlarida ulardan unumli foydalanadi:

Ayiq bosgan gulday

Ezildi ko'nglim,

Yovvoyi o'rdakka

Berdim sevgimni!...

O'rdak uchdi-ketdi,

Mung'ayib qoldim.

Hayratim obketdi

⁵⁰ Turdimov Sh. O'zbek xalq lirik qo'shiqlaridagi "xabarchi" ramzlar haqida ba'zi mulohazalar // Adabiy meros. – Toshkent, 1984. – №3. – B.93.

⁵¹ Shoda-shoda marvarid: O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – 198b

Qanotida u.
Kim meni aldasa –
Xudoga soldim,
Mayli, aldanmasin,
Hayotida u⁵².

“Surat” she’rida shaxsning botiniy-ruhiy fojeasi, inson sifatidagi ikki xil qiyofasi noan’anaviy uslubda aks ettirilgan. Biroq Muhammad Yusuf ushbu she’rida xalq qarashlari va xalq ijodining boy merosiga tayanganini ham fahmlash qiyin emas. Chunki xalq lirik qo’shiqlaridagi o’rdak obrazi salbiy xususiyat bilan tasvirlanadi. “Surat” she’rida muallif o’rdakni “bevafo”, “xiyonatkor” obraz sifatida aks ettiradi. Lirik qahramon samimiy sevadi, yorga o’ziga ishongandek ishonadi. Ammo yorning ko’ngli o’zgada, u “bevafo”, “xiyonatkor” bo’lib chiqdi. Shu bois uning ko’ngli beso’naqay “ayiq bosgan gulday” ezilgan, siniq. Chunki sevgani unga bevafoqlik qilib, uni yolg’iz tashlab ketadi. Ha, lirik qahramon o’zi bilmagan holda “yovvoyi o’rdakka” ko’nglini beradi. “O’rdak” esa uni hayratda qoldirganicha “uchdi-ketdi”. Lirik qahramon bunday bevafoqlik sababli juda ulkan g’am-anduh ichida qoladi. Biroq shunga qaramasdan, u yoriga yaxshilik tilaydi. Demak, shoir Muhammad Yusuf o’zbek xalq qo’shiqlaridagi “o’rdak” obrazining ma’no qatlamlaridan unumli foydalanib, o’xshatish va ko’chma ramziy ma’nolarning ta’sirchan chiqishiga hamda she’r zamiridagi badiiy-estetik g’oyaning zalvorli bo’lishiga erishadi.

Shoir “Ko’ngil shodligiga yo’qdir nihoya” she’rida esa o’rdak obrazini peyzaj tasviri jarayonida qo’llaydi:

Kelaman bittalab terib loy yo’ldan
Oltin yoshligimning suratlarini...
O’rdaklar uchadi og’rinib ko’ldan,
Oftobga tutgali ho’l patlarini⁵³

⁵² Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 138 b.

⁵³ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 185 b.

Bu satrlarni o‘qigan o‘quvchi ko‘z o‘ngida ko‘rkam ko‘lli qishloq manzarasi namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon ona qishlog‘ining loy yo‘llaridan odimlab kelar ekan, xayolida go‘zal yoshlik xotiralari jonlanadi. Shoir shu zaylda oltin kuz faslining betakror manzarasini chizadi. Yomg‘irdan so‘ng qishloqning tuproq ko‘chalari loy-balchiqqa qorishgan. Biroq shunga qaramasdan kuz manzarasi juda latofatli, chunki lirik qahramon musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas olar ekan, shu ona zaminda kechgan yoshlik chog‘larini birma-bir eslaydi. Kuz hayotni sarhisob qilish fasli, inson aynan kuzda bolaligini qo‘msaydi. Bu ko‘tarinki ruhiyatga parallel ravishda tabiat tasvirida ham joziba paydo bo‘ladi. Ya’ni lirik qahramon sokin ko‘lda ohista suzib yurgan o‘rdaklarning halovatini buzadi. Natijada ular “og‘rinibgina” ko‘kka uchadi. Shoirning bu misralarida tabiat va lirik qahramon ruhiyati nihoyatda ishonarli, jonli aks etgan.

Prof. N.Rahimjonov Muhammad Yusuf she’riyatidagi folklor an‘analari va badiiy obrazlar individualligi masalasi yuzasidan shunday deydi: “Birgina XX asr she’riyatining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini kuzatadigan bo‘lsak, aytaylik 30-60-yillar yoki 80-90-yillar o‘zbek shoirlarining folklor obrazlaridan ijodiy foydalanishda bir-biridan ajralib turishlarini ko‘rish mumkin. Bu narsa avvalo, badiiy estetik talqin borasida voqe’ bo‘ladi.

... Ot, Qushcha, Daraxt, Ajdar, Pari va boshqa obrazlar talqinida insonning jamiyatga, tabiatga munosabati masalalari, ruhiy dunyosi manzaralari, Olam va Odam sir-sinoatlari silsilasi betakror ma’nolar, rang va bo‘yoqlar, g‘oya va ohanglarda tajassum topadi”⁵⁴. Umuman, olim Muhammad Yusuf she’rlaridagi To‘ti, Burgut, Qumri, Chumchuq, Bulbul, Qaldirg‘och singari obrazlar qushcha timsolining serqirra ma’no qatlamlarini aks ettirishini ta’kidlaydi. Biroq olim maqolasida Muhammad Yusuf she’riyatidagi mifologik, ramziy obrazlarning xalq og‘zaki ijodidagi asoslariga to‘xtalmaydi. Shoir she’riyatidagi folklor an‘analarining davomiyligini emas, aksincha obrazlar individualligi masalasiga diqqatini qaratadi. To‘ti, burgut, qumri, qaldirg‘och kabi qushlar xalq og‘zaki

⁵⁴ Rahimjonov N. Muhammad Yusuf lirikasida folklor an‘analari va badiiy obrazlar individualligi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. – №5. – B. 19.

ijodida tez-tez uchraydigan timsollar ekanligini hisobga olsak, ularga e'tiborni qaratish lozim.

“Qaldirg‘och” afsonasi aniq va yorqin ifodalangan hodisa sababining etiologik belgilarini sharhlashga yo‘naltirilgan. Afsonada qaldirg‘och mo‘‘tabar zot sifatida tasvirlanadi. Tez va soz uchishi, faol harakati, uy va ayvonlarga uya qurishi, insonga yaqin yashashi uni tabarruk qush, ilohiy jonzotga aylantirgan. Qaldirg‘ochning ayrim xususiyatlari, eng muhimi, og‘zining qizilligi cho‘g‘ ta’siridan, ayrisifat dumi esa ilon tishlaganidan kelib chiqqandek tuyuladi”⁵⁵. Olimning “Qaldirg‘och” afsonasi va obraz haqidagi fikrlarini, shuningdek afsona va xalq orasidagi qaldirg‘ochga nisbatan insonlar e’tiqodini hisobga oladigan bo‘lsak, bu obraz xalq ertak va afsona, qo‘shiqlarida ezgulik timsoli, ilohiy, tabarruk va muqaddas qush sanaladi. Chunki qadim afsonalarda Qaldirg‘och insonga sodiq do‘st, xaloskor obraz sifatida aks ettirilgan.

Jumladan, “Alpomish” dostonidagi bosh qahramon – Alpomishning singlisining ismi Qaldirg‘och edi⁵⁶. Shu dalilning o‘ziyoq xalq qarashlariga binoan juda qadimdan Qaldirg‘ochga kishilar ezgulik timsoli sifatida yondoshganligini ko‘rsatadi. Zero, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham qaldirg‘och insonning xaloskori sifatida talqin etiladi.

Muhammad Yusuf o‘zbek xalq og‘zaki ijodining an‘analarini davom ettirgan holda o‘z she’rlarida qaldirg‘och obrazini ezgulik, lirik qahramonning dardkash do‘sti, hamdardi sifatida tasvirlaydi:

G‘ussang mening g‘ussamdir,
Ayvonimda yashaysan.
Qarab tursam, sen ham bir
Dardli qushga o‘xshaysan.
Ko‘nglingda ne savoling,
Nega aytmay yig‘laysan?...

⁵⁵ Imomov K. Etiologik afsonalar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2003. – №6. – B. 43.

⁵⁶ Qarang: Alpomish. – Toshkent: Yozuvchi, 1999. – B. 19.

So‘ra, so‘ra, qaldirg‘och,
Ko‘zi qora qaldirg‘och⁵⁷

Shoir keyingi bandda o‘z xalqi bilan qaldirg‘ochning kundalik hayoti va hatto turmushning eng mayda va eng katta qorin tashvishidan tashqari, ozodligi, erki yo‘qligini aytib ko‘nglini yozadi. O‘zbek xalqi tabiatan mo‘min, shukrli millat. Shu bois shoir qaldirg‘och bilan hasratlashar ekan, uni “kun yo‘qmi?”, “tin yo‘qmi?” deya so‘roqqa tutadi. Va shu orqali shoir o‘z millatining soddaligidan, haq-huquqini talab qilishda ham andishaga borishdan kuyinib she’r bitadi.

“Qaldirg‘och” she’rini ramziy ma’noda ham talqin qilish mumkin. Chunki o‘zbek millati tashqi jihatdan qora qosh, qora ko‘z bo‘lsa, tabiatan ham qaldirg‘och singari ozorsiz. Shuningdek, qaldirg‘och qanotlari qora, ammo ko‘kragi oq tusda. O‘zbek xalqi ham qaldirg‘ochdek oq ko‘ngil, bag‘ri keng millat. Tuproqli ko‘chada oq yaktak, qora chopon kiyib, belidagi belbog‘dan choponni orqaga sirib, qo‘llarini orqasiga bog‘lab kelayotgan o‘zbek otaxonini ko‘z oldingizga keltirsangiz, o‘zbekning tashqi ko‘rinishi ham qaldirg‘ochga o‘xshash ekanligini tuyasiz. Shoir qaldirg‘ochning shu jihatlariga e’tibor berib, o‘z she’rlarida bu obrazga ramziy ma’no yuklaydi.

Qaldirg‘och obrazi xalq qo‘shiqlarida ham ko‘p uchraydi:

Qaldirg‘och qaro bo‘lur.

Qanoti alo bo‘lur.

Yoshlikda bergan ko‘ngil

Ayrilmas balo bo‘lur⁵⁸

Bunda qaldirg‘ochning tashqi belgilari tasvirlanadi; ayni choqda insonning yoshlikda yorga berilgan ko‘ngli ham xuddi shu qush belgilariga xos ayrilmas, o‘zgarmas ekani chiroyli o‘xshatish orqali berilgan. Muhammad Yusuf ushbu obraz imkoniyatlaridan, badiiy-ramziy ma’nolaridan unumli foydalanib, o‘z she’rlarida uni ijtimoiy dard ifodasi vositachisiga aylantirdi.

⁵⁷ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 157 b.

⁵⁸ Shoda-shoda marvarid: O‘zbek xalq qo‘shiqlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – 219 b.

Muhammad Yusuf aksar hollarda xalqona obrazlardan ijodiy foydalanishda xalqchilligi, soddaligi va folklor bilan hamohangligi jihatidan ijodi individual xususiyat kasb etadigan Mirtemirdek ustoz shoirlar ijodiy tajribasiga suyanadi. Zero: “O‘zbek adabiyotining xassos shoiri Mirtemir ko‘p asrlik tarixga ega mumtoz adabiy merosimizdan bahramand bo‘lish bilan birga boy xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanadi. Folklorga xos poetik til va uslub, badiiy vositalar, ruhiy tavsiflash usuli, umumlashtirish mahorati – bularning hammasi Mirtemir ijodining xalqchilligi va tovlanishlarini vujudga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi”⁵⁹.

Mirtemirning “Qaldirg‘och” nomli she‘ri shunday misralar bilan boshlanadi:

Cheksiz ko‘k toqlarida qaldirg‘och qarsillashi...

qaldirg‘och qaytibdi-da.

Ko‘klam quchoqlarida keng olam larsillashi...

qaldirg‘och qaytibdi-da⁶⁰.

Shoir qaldirg‘ochning ona yurtga qaytib kelishini bahor darakchisi sifatida tasvirlar ekan, oddiy so‘zlashuv uslubiga xos “qaldirg‘och qaytibdi-da” birikmasini takror qo‘llash orqali shu kunlarga etganlik shukronasini jumlagi yuklaydi. Bahor – yangilanish, yasharish fasli. Qadimdan xalqimiz qishdan chiqish, “ilik uzildi”dan o‘tishni olqishlab, bahorning ilk chechaklarini ko‘zlariga surib “omonlig‘-somonlig‘”lar qilganliklari bejiz emas. Qaldirg‘ochning kelishi ham aynan shu kunlarga to‘g‘ri keladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, Muhammad Yusufning “Qaldirg‘och” she‘rida bu qush obrazi ijtimoiy dard ifodasi vositasi sifatida kelgan.

Xalq og‘zaki ijodida yana bir qush – qarg‘a obrazi ham borki, bu obrazga oid ikki xil qarash mavjud. Folklorshunos Sh.Turdimov qarg‘a obrazi bilan bog‘liq ramzlarni o‘rganib, shunday fikrni yozadi: “1. Har ikkala aytim “qarg‘a” haqidagi qadimiy mifologik dunyoqarash asosidagi tafakkur mahsulidir. 2. Bu mifologik

⁵⁹ Xodjamqulov U. Mirtemir lirikasida so‘z va obraz: Filol.fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – B. 8.

⁶⁰ Mirtemir. Asarlar. 2-jild. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1981. – B. 92.

tasavvur bo'yicha "qarg'a" kishilarni yaxshilik va yomonlikdan ogoh qilish bilan birga ularning gap-so'zlarini, xatti-harakatlarini g'ayritabiiy kuchlarga etkazib turuvchi obraz"⁶¹.

Prof. B.Sarimsoqov metaforik ko'chim haqida quyidagi nazariy fikrni bildiradi: "...istioraviy obraz va ifoda ijodkorga she'r mazmunini yashirib, ta'sirchan ifodalash uchun katta imkoniyatlar ochib beradi. ...Ayrim hollarda esa metafora ijodkorning voqe'likni emotsional-aqliy aks ettirish jarayonidagi topildig'i sifatida tug'iladi"⁶².

Demak, Shavkat Rahmonning "Echinadi milashlar yana..." deb boshlanuvchi she'rida qarg'a obrazining to'rt xil ramziy-majoziy ma'nolarda qo'llanishi va qora rangning metaforik ko'chim maqomida kelishi, avvalo, individual topilma bo'lsa, shuningdek, qarg'a obrazi she'rga yashirin ma'no va mazmun baxsh etib, badiiy matn ta'sir quvvatini oshirishga xizmat etgan.

Muhammad Yusufda ham "Qarg'a" nomli she'r bor. Bu she'r sodda mazmuni, g'oyasi bilan bolalar ijodiga xos uslubni eslatadi:

Tongda chopib chiqdim.

Daraxt joyida.

Shox bor,

Shoxda qarg'a yo'q edi ammo.

Boshga kulfat tushgan kunda sherigin

Tashlab ketmas ekan quzg'unlar hatto!⁶³

Shubhasiz, she'rdagi qarg'a obrazi hamda og'ir kunida uni tashlab ketmagan qora quzg'unlar obrazi shoirning badiiy niyatini ifodalash uchun vositadir. She'rda odamlar o'rtasida yo'qolib borayotgan mehr-oqibat masalasi tilga olinadi hamda inson ongli, aqlli mavjudot bo'la turib bir-biriga rahm-shafqat, oqibat ko'rsatishda beparvo bo'layotgan zamonda oddiy o'laksaxo'r qushlar odamlardan ko'ra bir-biriga mehrli, muruvvatliroq ekani asosiy g'oyani tashkil etadi.

⁶¹ Turdimov Sh. O'zbek xalq lirik qo'shiqlaridagi "xabarchi" ramzlar haqida ba'zi mulohazalar // Adabiy meros. – Toshkent, 1984. – №3. – B. 92.

⁶² Sarimsoqov B. I. Badiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: 2004. – B. 44.

⁶³ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 169 b.

Olam va odam muammosini, hayotning tub mohiyati masalalarini xalqona ohanglarda kuylayotgan hozirgi o'zbek she'riyati vakillaridan yana biri Sirojiddin Sayyiddir. Shoir ijodi haqida prof. N.Rahimjonov "Shoir she'rlariga oshiftalikni bir og'iz so'z bilan ifodalash qiyin. Lekin, nazarimda, bu narsa Sirojiddin Sayyid ijodida hayotga beparvo, voqelikka befarq, odamlar taqdiriga loqayd she'rlarni yo'qligi bilan izohlanadi"⁶⁴, deganida haqli edi. Uning qalamiga mansub lirik namunalarda ham xalq og'zaki ijodi an'analari, xalqona badiiy tasviriy usullar, folklor motivlari, o'ziga xos sodda she'riy til yaqqol seziladi. Shunisi xarakterliki, Sirojiddin Sayyid she'riyatida ham Mirtemir, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf kabi turli avlod vakillari ijodida uchraydigan qarg'a obrazining yangicha talqini, o'ziga xos individual poetik ramzlar mavjud.

Jumladan, "Xazonrez" she'rida kuz faslining jonli, tabiiy lavhalari bilan insonning turmush tarzi, hissiyotlari parallel ravishda quyidagicha qiyoslanadi:

To'kiladi, to'kiladi

O'kinchlar to'kiladi.

Iztiroblar, pushaymonlar,

O'tinchlar to'kiladi⁶⁵.

Sirojiddin Sayyid xalq qo'shiqlariga xos sodda turoq, vazndan foydalanib, 8, 7 bo'g'inli qisqa satrlar bitadi. Aslida kuz fasliga xos muhim xususiyat dov-daraxtlardan barglarning erga to'kilib, xazonrez manzarasini hosil qilishidir. Biroq shoir yuqoridagi bandda aynan bargning to'kilishi haqida biror bir ishora yoki so'z qo'shmaydi. Shoir nazdida daraxtlardan barglar emas o'kinchlar, iztiroblar, pushaymonlar va o'tinchlar to'kiladi. Nima uchun shoir aynan o'kinch, iztirob, pushaymon va o'tinchning bargdek sarg'ayib, qovjirab, erga xazon bo'lib to'kilishini shu taxlit badiiy ko'chim orqali ifoda etdi ekan? Chunki inson bu dunyoda hayot kechirar ekan, uning yuragi o'kinchu alamlarga to'lib, hayotning turfa xil mashaqqatlaridan iztirob chekib, qilgan amallaridan, birovga noo'rin

⁶⁴ Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 153.

⁶⁵ Sayyid S. Kuydim. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994. – B. 19 (keyingi misollarning sahifasi qavsda ko'rsatiladi).

etkazgan dil jarohatlaridan pushaymonlik umrining “kuz”ida unda namoyon bo‘ladi, qalbining tub-tubida yaxshi kunlar ilinjida Olohgga yukinib yashaydi. Ehtimol, shoir misralarini yanada o‘zgacharoq talqin etish mumkindir. Ammo bizningcha, hayot va inson hissiyotlarini tashkil etuvchi shu to‘rtta so‘z – O‘kinch, Iztirob, Pushaymon, O‘tinchni yuqoridagi tarzda izohlash ma’quldek ko‘rinadi. Shoir keyingi bandda yanada original poetik kashfiyot qiladi:

Qora atlas kabi asta
Daraxtlardan sirg‘alar –
Gala-gala bo‘lib erga
To‘kilmoqda qarg‘alar⁶⁶.

Shudgorlangan er ustida, barglari to‘kilgan yalang‘och daraxt shoxlarida to‘da-to‘da bo‘lib qag‘illayotgan qora, yaltiroq atlas matoga o‘xshash qarg‘alar shoirning tasavvurida sirg‘alib tushayotgan matoga o‘xshaydi. Shoir birinchi banddagi “to‘kilmoq” fe’lini qarg‘alarga nisbatan ham qo‘llaydi. Bu hech bir shoir lirikasida uchramagan poetik ko‘chimdir. Chunki haqiqatan ham qora atlas mato asli yaltiroq va sirg‘aluvchan bo‘ladi. Ayni paytda qarg‘a qanotlarini keng yoyib uchar ekan, uning patlari ham qop-qora, silliq, yaltirab ko‘rinadi. Shoir yuqoridagi bandda qarg‘a obrazini, birinchidan, kuzning tugab, qish kunlarining boshlanishidan darak beruvchi xabarchi ramz sifatida qo‘llasa, ikkinchidan, insonning qalb iztirobi, o‘kinchi, pushaymoni, o‘tinchidan goho xush, goho noxush xabar etkazuvchi obraz sifatida badiiy talqin etadi.

Nihoyat, uchinchi bandga kelib shoir bargning to‘kilishini tilga oladi. Ammo bu o‘rinda sarg‘aygan oltinrang barglarning to‘kilishini kun botib, tun kirishiga qiyoslaydi. Aslida tun ham qarg‘a va qora atlas mato singari tim qora. Nima sababdan shoir tunni oltinrang sariq bargga o‘xshatadi? Chunki insonning g‘am-alami, hijron dardi shoirning tasavvurida qop-qora, zim-ziyo tunni ham sarg‘aytirib yuboradi. Ha, misralar osha ko‘chma ramziy ma’nolarni ifodalashga xizmat qilayotgan “to‘kilmoq” so‘zi ushbu bandda barglar kabi tunlar, chiroqlar, g‘ussalar va firoqlarning to‘kilishiga qiyoslanadi. Insonning hayot yo‘lida turli-tuman g‘ov

⁶⁶ Sayyid S. Kuydim. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1994. – 160 b.

va to‘siqlar paydo bo‘laveradi. Biroq irodali inson o‘z matonati bilan ularni engib, kelajakka intiladi. Insonning his-tuyg‘usi ham, g‘am-anduhi ham asrlardek uzun va poyoni yo‘q. Shoir uni o‘z bilganicha, o‘z fahmi va idrokicha she‘r qiladi.

Shunday fikrni Muhammad Yusufda ham uchratamiz. Uning “Qarg‘a esa mingga kiradi” she‘rida qarg‘a obrazi uzoq umr kechiruvchi qush sifatida ta’riflanib, uning uzundan-uzun hayoti bilan insonning qisqa umri qiyoslanib, hayotning qadriga etish masalasi qo‘yiladi.

Azizimsan,

Baxtiyorimsan.

Ishonganim – vafodorimsan.

Yolg‘izimsan...umring o‘lchovli

Qarg‘a esa mingga kiradi⁶⁷.

Lirik qahramon insonga murojaat qilar ekan, unga umrning o‘lchovli berilganini eslatib, hayotning qadriga etish kerakligini, har bir daqiqaning bebaho oltinga tengligini ta’kidlab, ogohlantiradi. Shoir bu olamda hech bir zot abadiy emasligini, uni dunyoga keltirgan ota-onasining g‘animatligini juda yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham o‘limning kutilmaganda kelishini, inson to‘satdan vafot etishini tasavvur etib, hayotdagi bunday tabiiy voqelikni tasvirlab she‘r bitadi.

Folklorda yana bir xabarchi obraz mavjud. Bu g‘oz obrazi. Jumladan, “Alpomish” dostonidagi g‘oz obrazi zindonda yotgan Alpomishdan oilasiga xat etkazadi: “Shu vaqtda zindonning tepasiga (bir g‘oz) kelib o‘tirdi. Shunda Alpomish g‘ozga qarab, zor yig‘lab, bir so‘z deb turgani...”⁶⁸ Demak, “Alpomish” dostonida g‘oz obrazi insonning xaloskori, boshiga g‘am-tashvish tushganida unga madadkor bo‘luvchi ijobiy obraz sifatida ifodalangan.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatida qo‘llanayotgan turna obrazi ham o‘rdak, qaldirg‘och, qarg‘a, g‘oz singari obrazlar qatorida o‘z mifologik genezisiga ega. Masalan, “Ur to‘qmoq” ertagida turna mo‘jizakor, ertak qahramonlariga sehrli

⁶⁷ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. –40 b.

⁶⁸ Alpomish. –Toshkent: Yozuvchi, 1999. – B. 47.

buyumlarni in'om etgan ilohiy obraz sifatida kelsa, xalq qo'shiqlarida esa turna obrazining o'ziga xos talqinlarini uchratish mumkin:

Bir to'da turna keladi.
Gul shoxiga qo'ngani.
Gul shoxi larzon uradi.
Turnani qo'ndiradi.
E, yorginam⁶⁹

Muhammad Yusufning she'rlarida ham bu obraz ezgulik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Muhammad Yusufning "Cho'loq turna" she'rida yovuzlikning qurboni bo'lgan qush bilan lirik qahramonning dardu iztirobi bir xil. Ular dardkash do'st. Shuning uchun lirik qahramon jisman zaif turna bilan hasratlashadi:

Bir oyoqda chopib kelding
Cho'loq turna.
Uyim qaydan topib kelding,
Cho'loq turna?
O'zi qon bu dilni endi
Sen ham tirna⁷⁰

Berahm ovchi nishonidan yaralanib, bir oyog'i cho'loq bo'lib qolgan turna bilan qalbi jarohatlangan lirik qahramonning dardu dunyosi o'zaro yaqin. Shuning uchun ular bir-biriga hamdard bo'lib, do'st tutinishgan. Albatta, shoir "Cho'loq turna" she'rida turnaning jisman ojizligini vosita qilgan holda o'zining o'ksigan ko'nglini unga parallel qo'yadi. Shu zaylda hayotdagi yovuzlik va jaholat qurbonlariga aylangan inson iztirobini dard bilan ifodalaydi. Binobarin, adabiyotshunos N.Rahimjonov ushbu she'r xususida shunday fikr bildiradi: "Cho'loq turna bir oyoqlab bo'lsa-da, lirik qahramon uyini topib keladi. Yovuz kimsalar uning bir oyog'iga, qanotiga shikast etkazishgan... Vaholanki, odamlar fe'li faoliyatidagi yovuzlik ko'rinishlaridan ko'ngli zada. Qalbi yara... Lirik

⁶⁹ Shoda-shoda marvarid: O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – 239 b.

⁷⁰ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 197 b.

qahramonning ham yuragiga tosh otib yaralashgan. Har ikkalasining ham ko‘ngil erkiga raxna solishgan”⁷¹.

Shuningdek, shoirning “Turnalar” she’rida ham turna obrazi gavdalanadi.

Issiq-issiq yurtlar izlab,
O‘tayotir turnalar,
Hamdamu hamyurtlar izlab,
Ketayotir turnalar...⁷²

Shoir turna obrazining xalq ertak va dostonlarida kuylangan ilohiy, pokiza, ezgulik timsoli sifatidagi xislatlarini o‘rganib, o‘z she’riyatida bu obrazga murojaat qilar ekan, “Turnalar” she’rida jaholat botqog‘iga botib, gunohkor bo‘lib qolayotgan bashariyatga achinib, o‘zga yurtlarga uchib ketayotgan turna obrazini yaratadi.

Muhammad Yusuf she’riyatida boshqa xalqona obrazlar qatori ot obrazi ham alohida o‘rin egallaydi. Ma’lumki, ot obrazi qadim xalq ertak va dostonlarida sadoqat va vafodorlikda tengsiz, kerak bo‘lsa mislsiz jasorat ko‘rsatuvchi, o‘z egasiga sodiq obraz sifatida juda mashhur. “Alpomish” dostonida Boychiborning o‘ziga xos tasviri fikrimizning asosli dalili bo‘la oladi. Folklorshunos olimlar ot obrazining xalq eposida tutgan o‘rnini yuqori baholashgan. Jumladan, H.Zarifov shunday deydi: «Dostonlarda ot juda muhim o‘rin egallaydi. U qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo‘lida xizmat qilib, g‘oyat mushkul vazifalarni bajaradi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo‘ldoshi, ishonchli qo‘ldoshi va yaqin do‘stidir»⁷³.

Muhammad Yusuf ham xalq og‘zaki ijodidagi ot obraziga taalluqli talqin va tasvirlarni izchil davom ettirgan holda otga bag‘ishlab bir nechta voqeaband she’rlar yozadi. Uning “Oq tulpor”, “Zebijon”, “Toychoq bo‘lib”, “G‘irot mingan”

⁷¹ Rahimjonov N. Muhammad Yusuf lirikasida folklor an‘analari va badiiy obrazlar individualligi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. – №5. – B. 22.

⁷² Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 172b.

⁷³ Zarifov H.T. O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar. Jangovor otning qadimiy asoslariga doir // O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4 kitob. Po‘lkan shoir. – Toshkent: Fan, 1967. – B. 65.

she'rlarida bevosita ot obrazi qatnashadi. Xalqimizning o'g'il to'ylarida tog'aning toy hadya etishi, to'ybolani toyga o'tirg'izib aylantirishlar ham yigitga ot hamroh, degan aqidalariga asoslanadi:

Oq tulporim bor edi,
Beklar unga zor edi.
Og'aynilar, ot menga
Ham do'stu ham yor edi ⁷⁴

“Oq tulpor” she'ridan olingan ushbu parcha xalq ertak va dostonlariga xos uslubda bitilganligi bilan xarakterlanadi. Muhammad Yusuf xalq ijodidan bahramand bo'lar ekan, uning she'riyati ham shaklan, ham ruhan folkloriy ijodga nihoyatda yaqinligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ayni choqda, shoir she'riyatida poetik kashfiyotlar, ijodiy qayta ishlov berilgan obrazlar ham ko'p uchraydi. Shoir boy xalq og'zaki ijodi sarchashmalaridan oqilona foydalanib, musiqiy ommabop lirika namunalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, “Oq tulpor” voqeaband she'rida kuylangan lirik qahramonning otga mehr-muhabbati “Zebijon” she'rida quyidagicha tadrijiy davom ettiriladi.

Suyganimni bir boyvachcha tortib oldi.
Tillo berdi, tilloga ot sotib oldim,
Tulporimning tuyog'iga yotib oldim,
Zebijonni suyar edim, Zebijonni...

Ot – shoir uchun vafodor va sadoqatli do'st. Shu bois Muhammad Yusuf ko'pincha o'z she'rlarida lirik qahramon, ot va yor obrazlarini yaratar ekan, ular shoirning badiiy-g'oyaviy maqsadini yuzaga chiqarish uchun yordam beradi. “Shunisi xarakterliki, xalq qo'shiqlarida ham ot – murod, yorning poetik jufti sifatida talqin qilinadi”⁷⁵.

Ot obraziga bo'lgan e'tiqod va obrazga xos asosiy fazilatlar Muhammad Yusuf she'riyatida ham zo'r muhabbat bilan kuylangan. Jumladan, “Oq tulpor”

⁷⁴ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 151b.

⁷⁵ Eshonqulov J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini: Filol fan. dok-ri ...diss. avtoref. Toshkent, 2010. – B. 22.

she'rida ot va yor obrazlari bir-biriga zid ravishda qo'yiladi. Ya'ni lirik qahramon yorga bo'lgan muhabbatidan ko'ra otga mehr-muhabbati ustun ekanini xalqona ruhda kuylaydi. "Zebijon" she'rida esa ot obrazi lirik qahramonning sevimli yoriga etishishda yordam beruvchi jasoratli, vafodor do'st timsoli sifatida badiiy aks ettiriladi.

Tunda borib olib qochdim, kelib orim,
Eldek uchib ketaverdi jonivorim.
Madaminbek biya minsin, chu, tulporim,
Zebijonni suyar edim, Zebijonni!..⁷⁶

Bu she'rdagi Zebijon ismi xalq qo'shiqlarida ham tez-tez uchraydi. Aynan shu ism ham shoir she'rlarining xalqona pafosini kuchaytiradi. «Zebijon» haqida xalq qo'shiqlarining birida shunday satrlar bor:

Zebijon, davringda gullar ochilur,
Sen so'ylasang, mening bahrim ochilur.
So'ylasang-so'y-lamasang, omonda bo'l,
Qizil gul joyida tursa ochilur...

Zebijon darchani ochdi - kirmadim,
Bir tovoq shaftoli qo'ydi-emadim.
Bir tovoq shaftolisi nordon ekan,
Bevafo yor va'dasi yolg'on ekan⁷⁷

Mashhur adibimiz Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida bosh qahramonning Zebi deb nomlanishi ham tasodif emas. Zebi XX asr boshlaridagi o'zbek qizlarining tipik ramziy timsoli sifatida gavdalanadi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf o'z she'riyatida ot obrazini qadim xalq ijodi, an'analari va yozma adabiyot vakillari asarlaridagi tajribalardan foydalanib, vafodor, hamdard do'st, kurashchan obraz sifatida yaratgan.

⁷⁶ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 93 b.

⁷⁷ Shoda-shoda marvarid: O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – 220 b.

Hozirgi o'zbek she'riyatida o'rdak obrazi ba'zan folklor ijoddagi singari salbiy xislatli kishilar timsoli sifatida ishtirok etsa, ba'zan go'zal peyzaj tasviri tarkibida namoyon bo'ladi. Qaldirg'och obrazi xalqona qarash va e'tiqodlarga ko'ra lirik qahramonning dardkash do'sti, shoirning badiiy-g'oyaviy maqsadini amalga oshirish uchun poetik ramziy obraz sanaladi. Shuningdek, qaldirg'och o'zbek she'riyatida bahor darakchisi, peyzaj manzarasi uchun tasviriy vosita hamdir. Hozirgi o'zbek she'riyatida qarg'a obrazi ham ezgulik, ham noxush voqea-hodisadan darak beruvchi xilma-xil ramziy ma'no tovlanishlarini o'zida mujassam etgan poetik obraz sifatida aks etgan. Turna obrazi o'zbek she'riyatida donolik, ezgulikning ideal timsoli sifatida tajassum topgan bo'lib, u shoirning dardkashi, poetik ramziy obraz sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, terma va dostonlarida ot obrazi markaziy o'rinda bo'lib, bosh qahramonning sadoqatli do'sti, hamrohi bo'lib keladi. Xuddi shuningdek, Muhammad Yusuf, Usmon Azim singari shoirlar bu mifologik obrazlar mohiyatidan ijobiy foydalanib, o'z she'rlarida yangicha poetik obraz yaratganlar. XX asr boshlarida xalq shoirlari ijodida uchraydigan Zebi obrazi Muhammad Yusuf she'riyatida ko'rinish berib, bu obraz o'zbek ayolining o'tmishini eslatuvchi obraz sanaladi

2.2. Folklordagi ramziy obrazlarning individual talqini

Lirik turgagina xos xarakterli jihatlar, lirik kechinma tabiati xususida adabiyotshunos olimlarning juda muhim fikr-mulohazalari, ta'kid va qaydlari mavjud. Hozirgi o'zbek she'riyatida folklorga xos obrazlar tizimini tadqiq etish natijasida har bir shoir ijodida qayta-qayta murojaat natijasida individual ramziy qiyofa kasb etgan obrazlar mavjudligi ayon bo'ldi. Xususan, shoir Muhammad Yusuf Mo'min bobo, hayvonlar (kiyik-ohu), qushlar (qaldirg'och, turna), hasharotlar (kapalak), o'simliklar (lolaqizg'aldoq, rayhon, yalpiz) obrazlaridan foydalanib, ular vositasida o'z badiiy-estetik olamini, go'zal lirik she'r namunalarini yaratdi va bu obrazlar o'quvchilar orasida ma'lum timsollar ramzi sifatida mashhur bo'ldi.

Kapalak – umri qisqa, go‘zal, nurga, gullarga oshufta beozor jonzot. SHoir kapalakning ezgulikka esh hayotini o‘z she‘riyatida badiiy aks ettirar ekan, kapalak obrazini pokizalik, beg‘uborlik, halollik, musaffolikning ideal ramzi sifatida talqin qilganini kuzatish mumkin. Binobarin, Muhammad Yusuf “Kapalaklar”, “Atirguldand yumaladi kapalak”, “Kapalak qo‘limga qo‘nadi bir kun ...”, “Bisotimni bog‘da bir halol”, “Tunda she‘r aytishdik kapalak bilan” singari she‘rlarida kapalak obraziga murojaat qiladi. Xalq qarashlarida kapalaklar arvoh timsoli bo‘lib, arvohlar esa hamisha beozor, tiriklarga zarar qilmaydi, deydilar. Kapalakning beozorlik, beg‘uborlik timsoliga aylanishi balki shundandir. Muhammad Yusuf lirikasini o‘rganar ekan, adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam “XX asr Mashrabi” ilmiy maqolasida shunday deydi: “Shoir she‘riyatida bir obraz bor. U andak to‘pori, andak dumbul, biroq o‘ta samimiy, yuragi toza. Aynan shu obraz nigohi bilan dunyoga nazar solar ekansiz, boshqa vaqtda sizga g‘alati bo‘lib ko‘rinadigan gaplar, holatlar ham endi erish tuyulmaydi⁷⁸”.

Darhaqiqat, Muhammad Yusufni his etish uchun birozgina o‘zlikka qaytish kifoya. Shoir “Kapalaklar” she‘rida odamlar o‘rtasida yuz berayotgan oqibatsizlik, shafqatsizlik, yovuzlik kabi illatlardan bezib, kapalakning nurga, yorug‘likka tashna hayoti bilan inson hayotini qiyoslaydi:

Gulga qo‘nsa, qanotlari botmaydi,
Ojizlarim birovga tosh otmaydi,
Bir kun yashar, bir-birlarin sotmaydi,
Kapalaklar odamlardan mehribon ...⁷⁹

Muhammad Yusufning “Atirguldand yumaladi kapalak” she‘rida kapalakning nihoyatda qisqa bir kunlik umri obrazli ifodalanadi.

Atirguldand yumaladi kapalak,
Bir silkinib qo‘ymadi ham gul shoxi.

⁷⁸ Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 45.

⁷⁹ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 56 b.

Jon talashib, qum yaladi kapalak,
Ko'chdi mening ko'ksimga-da titrog'i...⁸⁰

Lirik qahramon kapalakning bir kunlik umrini kuzatadi. Halollik va go'zallikning ideal ramzi hisoblangan kapalak eng so'nggi nafasida ham chaman-chaman bo'lib ochilgan, quyoshga bo'y cho'zib, o'z iforini taratib, musaffo havoda chayqalib turgan atirguldan yumalab, qumga tushib beozor halok bo'ladi. Uning hayoti nihoyatda zavqli, biroq tongda ko'z ochib, quyosh nurlari, gul hidlariga sarmast bo'lgan kapalakni shu kuni shomdayoq o'lim albatta o'z changaliga olishi muqarrar.

Shoir tabiatning bu beozor va chiroyli jonzotiga achinib, unga o'zini yaqin do'st, hamdard sanab, kapalak haqida ko'plab she'rlar bitadi:

Jonimda jon qolmas yugurib-elib,
Ko'ngil aytganimga ko'nadi bir kun.
Tug'ishgan singlimdek sog'inib kelib
Kapalak kaftimga qo'nadi bir kun..⁸¹

Turmush tashvishlari, kundalik g'alvalardan lirik qahramon "yugurib-elib" charchaganligini his etadi. Shoir o'z ko'nglidagidek yashashni va beg'ubor, beozor kapalak bilan hamsuhbat bo'lishni, bir kun kelib kapalak uning kaftiga qo'nib, chin yurakdan o'zaro dil rozlari aytishib, bir-biriga mehribon bo'lishini orzu qiladi. Shuning uchun she'rda "kapalak kaftimga qo'nadi bir kun ..." misrasini bir oz o'zgartirgan holda (kaftimga – qo'limga) takror ishlatadi.

Kapalakning nihoyatda halol hayot kechirishini anglagan shoir boshqa bir she'rda shunday satrlarni yozadi:

Bisotimni bog'da bir halol
Kapalakka almashaman men.
Hayotimni ko'kdagi zilol
Kamalakka almashaman men⁸²

⁸⁰ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 92 b.

⁸¹ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 94 b.

⁸² Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 180 b.

Shoir bisotida to‘plangan bor moddiy, ma’naviy boyligini o‘ta halol kun kechirayotgan bitta “kapalakka almashaman” deydi. Uning nazarida halollik masalasida kapalakka hech kim teng kela olmaydi. Tabiat mo‘‘jizalari shoirni doimo hayratga soladi, to‘lqinlantiradi. Shu zaylda shoir qalbi latif misralarga to‘ladi. Muhammad Yusuf kapalakni sof go‘zallik va halollik sifatida alqasa, kamalakni rangin zavqli hayot ramzi sifatida kuylaydi.

Muhammad Yusuf she’riyatida kapalak o‘ziga xos tarzda, ya’ni halollik, soflik, do‘stlik, beg‘uborlik kabi ramziy ma’nolarni anglatga, Shavkat Rahmon she’riyatida kapalak sevgi, muhabbat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Binobarin, shoir shunday xitob qiladi:

Muhabbat – chiroyli kapalak,
qo‘rqaman sho‘rlikni tutgani.
Kapalak quvganim yodimda,
Yodimda yo‘q ammo etganim.

Ko‘rinadiki, har bir ijodkor dunyoni, olam va odamni individual badiiy idrok etgani bois bitta obraz turli shoirlar ijodida xilma-xil ramziy poetik obraz sifatida zuhr topgan.

Muhammad Yusuf ijodida kiyik obrazi alohida mavqega ega. U ba’zan muhabbat timsoli bo‘lib kelsa, ba’zan shoirning dardkashi bo‘ladi. Shoir ijodida ba’zan ohu, ba’zan jayron shaklida kiyik shoirning hayot falsafasi, orzu-umidi qalbida qolgan armonlarini tinglovchi dildoshi, dardkashiga aylanadi:

Umrimizning barcha yo‘li, so‘qmog‘i cho‘g‘,
Cho‘g‘dan qo‘rqma, beyuz qo‘ygan qopqondan qo‘rq,
Bu dunyoda senga do‘st yo‘q, menga do‘st yo‘q,
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam?⁸³

O‘zbek xalq ertaklarida go‘zal yorning kiyikka aylanib qolishi yoki singilning kiyikka aylantirib qo‘yilgan hollari juda ko‘p uchraydi. Shoir kiyikning ana shu holatlaridagi himoyasizlik, chorasizlik motivlaridan foydalanadi.

⁸³ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 74 b.

Umuman olganda Muhammad Yusuf uchun beozor, himoyasiz, ayni damda go‘zallikning betakror timsollari hamisha qalbga yaqin obrazlar bo‘lgan. Shoir ularni ruhan his etgan:

Yurak qoning to‘kilgan so‘qmoq
Bag‘ri alvon lolaqizg‘aldoq,
Senga toshlar otdi qay gumroh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?..⁸⁴

Sayyod toshidan bag‘ri xun jayron qoni to‘kilgan yo‘llar bamisli lolaqizg‘aldoqlar ochilib yotgandek alvon rangda, balki, lolaqizg‘aldoq ozor topgan ohular qonidan yaralgandir. Shoir ijodida lolaqizg‘aldoq obrazi ham tez-tez uchraydi. Uning “Qizg‘aldoq” she’rida kapalak, kiyik obrazlari kabi qizg‘aldoqqa ham shoir darddosh do‘st, g‘amkash bo‘lib ko‘ngil so‘raydi. Endi bu she’rda qizg‘aldoq jayron uchun bag‘riqon bo‘lib ko‘z yoshi to‘kmoqda. Shoir lirikasida bu obrazlar biri ikkinchisi bilan bog‘liqlikni kuzatamiz. Jayron qonidan paydo bo‘lgan qizg‘aldoq, uning hajrida qon yig‘laydi. Ishqdan qizargan yuzi lirik qahramonning “qon dili”ga tegib turibdi. Har uchchala qahramonning holati bir xil, dardi, iztirobi bir xil.:

Sollanasan kelinchakday boshing egib,
Jayron o‘tgan so‘qmoqlarga yoshing to‘kib,
Qizil yuzing qon dilimga turar tegib,
Meningdek sen g‘aribning ham parvonang yo‘q⁸⁵

“Bu obraz uning o‘ndan ortiq she’rlarida yaratilgan. Shoir qizg‘aldoq obrazini she’rlariga rangli ohanglarda, rangli qirralarda kiritadi va unga bir insoniy his-tuyg‘u bilan boqib, jonlantirib, tabiatning bir jonli bo‘lagiga aylantiradi”⁸⁶. Muhammad Yusuf tabiatni sevadi. Shu bois lolaqizg‘aldoq unga g‘amkash, uning eng yaqin do‘sti. Sevgidan kuygan, qalbi yara, sodda, go‘zalligi va sevgisi bois azobga qolgan qizg‘aldoqqa yolg‘iz do‘sti malham bo‘lishga oshiqadi:

⁸⁴ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 74 b.

⁸⁵ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 53 b.

⁸⁶ Davronova M. Muhammad Yusufning poetik mahorati: Filol.fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 13.

Qizg'aldog'im, qirdan bo'lak koshonang, yo'q,
Kokil yoysang, erdan bo'lak toshoynang yo'q,
O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib
Peshonangdan o'pay desam peshonang yo'q.⁸⁷

Muhammad Yusufning ruhiy holatini, kayfiyatini to'laqonli ochib beruvchi kapalak, yalpiz, rayhon, ohu kabi obrazlar shoir ijodida etuk individual obrazlar qiyofasini oldi.

Muhammad Yusuf she'riyatida kapalak, lolaqizg'aldoq, kiyik, obrazlari individual ramziy obrazlar sanalsa,

Muhammad Yusuf she'riyatida kapalak halollik, soflik, do'stlik, beg'uborlik kabi ramziy ma'nolarni anglatadi, shoir Sh.Rahmon she'riyatida kapalak – sevgi, muhabbat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Muhammad Yusuf ijodida kiyik va lolaqizg'aldoq ba'zan muhabbat timsoli bo'lib kelsa, ba'zan shoirning ichki kechinmalarini o'zida mujassam etgan individual-ramziy obrazga aylanadi. Sirojiddin Sayyid she'riyati chol, choy, piyola, xazon obrazlari izchil ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Chol – foni dunyo alamlarini va quvonchlarini tatigan inson timsoli, piyola – hayot, choy – hayotning quvonchu tashvishlari, shuningdek, umrning ramziy timsoli sifatida inkishof qilingan. Shoir lirikasida daryo obrazi keng ishlangan bo'lib, bu obraz – tarix, taqdir, vatan, xalq, umr, jo'shqinlik, yigitlik, tantilik, buyuklik kabi ma'nolarni ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodida qadimdan ishlanib kelingan muayyan obrazlarning zamonaviy o'zbek shoirlari she'rlarida individual mohiyat kasb etishi badiiy ijod qonuniyatidagi an'ana va vorisiylik tushunchalarining amaliy ifodasi bo'lib keladi.

Folklordagi obrazlar ham ma'lum bir shoir ijodidagi obrazlar ham turg'un emas. Ular doimo harakatdadir. Bu xususiyat san'atning azaliy mohiyatiga tegishli adabiy-nazariy hodisadir. Har bir shoir olamga, inson hayotiga turli nuqtai nazar bilan yondashadi. Kechinmalar va tashqi dunyo voqeliklari har shoir ijodida individual tarzda zuhurlanadi

⁸⁷ Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 53 b.

XULOSA

Tarixan shakllanib kelayotgan o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligi, urf-odatlari, an'analari va etakchi fazilatlarini bugungi she'riyatda aks ettirishda folklorning o'rni beqiyosdir. Qolaversa, millatning ma'naviyati uning adabiyotida ko'rinadi, yozma adabiyot esa xalq ijodidan oziqlanadi, bu jarayon folklorizmlar orqali namoyon bo'lar ekan, she'riyatda folklor an'alarining davom etishini o'rganish hamisha dolzarblik kasb etadi. Yozma adabiyotda, xususan, rang-barang janrlarga ega bo'lgan o'zbek she'riyatida xalq og'zaki ijodi shoirning individual uslubi va mahoratini namoyon etish uchun ulkan omil bo'lib xizmat qiladi. Jahon adabiyotiga nazar tashlansa, abadiyatga daxldor eng mashhur va genial asarlarning ildizi ko'p asrlik buyuk insoniy g'oyalar, xalqning ezgu orzu-armonlari aks etgan xalq ijodiga borib taqalishi oydinlashadi. Xalq ijodida davrlar kechmishi, millat dunyoqarashi, ulkan insoniy g'oyalar mujassamdir. SHu bois yozma adabiyot bilan folklor munosabatini o'rganish hamisha adabiyot ilmining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolaveradi.

Xalq og'zaki ijodida pari, Xizr, ajdar, dev, shayton, yalmog'iz singari mifologik obrazlar muhim o'rin egallaydi. Bu poetik obrazlar yozma adabiyotga ham ko'chgan. Muhammad Yusuf ijodida mifologik obrazlarning o'ziga xos tabiati, xalq ijodida tutgan badiiy-estetik ta'sirchanligidan foydalanib, yangicha poetik obrazlar, obrazli ifodalar, emotsional she'riy misralar bitadi. Xususan, xalq ertak va dostonlarida muhim o'rin tutuvchi va tez-tez uchraydigan, asarga ruhiyat, sirlilik baxsh etuvchi pari obrazi go'zallik, donolik, sehr-jodu, bevafoqlik, qo'l etmaslik singari qarama-qarshi xislatning timsoli sifatida bugungi she'riyatda aks etgan.

Mifologik zamin asosida vujudga kelgan o'rdak, g'oz, qaldirg'och, qarg'a, turna singari qushlar obrazi Muhammad Yusuf ijodida tez-tez uchraydi. O'rdak obrazi hozirgi o'zbek she'riyatida xalq ijodidagi kabi salbiy xislatli xiyonatkor, fisqu fasodchi, g'iybatchi obraz sifatida namoyon bo'lsa, ba'zan peyzaj manzarasi uchun tasviriy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Qaldirg'och obraziga xos xalqona qarash va e'tiqodlar Muhammad Yusuf lirikasida tadriijiy davom ettiriladi. Shoir

ijodida Qaldirg'och obrazi muqaddas, lirik qahramonning samimiy dardkash do'sti, taqdiridoshi, halollik va ezgulikning ideal ramzi sifatida talqin etiladi. Qolaversa, qaldirg'och obrazi ham o'rdak, g'oz obrazlari singari peyzaj tasviriy vositasi hamda bahor darakchisi sifatida zamonaviy she'riyatda zuhur topgan.

Xalqona uslub va ohanglarda qalam tebratgan Muhammad Yusuf she'riyatida o'ziga xos, qayta-qayta murojaat qilingan bir qancha obrazlar mavjudki, ularni shoirlar ijodida ko'ringan individual obrazlar sifatida tasdiq etish mumkin. Xususan, shoir she'riyatida Kapalak obrazi halollik, beg'uborlik, samimiylilikning ideal timsoli sifatida tajassum topadi.

Yozma adabiyotda qo'llanish doirasi jihatidan xalq og'zaki ijodining maqol, matal, ibora kabi janrlari eng faoldir. Zero, shoirlarimiz ijodda poetik talab va badiiy maqsadga ko'ra ulardan foydalanar ekan, ba'zan ayrim so'zlarning sinonimik va leksik variantlarini o'zgartirib qo'llaydi. Bu sinonimik va leksik variantlar istifodasi she'rda qofiya va poetik ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Muhammad Yusuf xalq maqol va hikmatli so'zlariga ijodiy yondashib, o'zlashtirma, gohida yangicha maqol variantlarini yaratdilar.

Shoir she'riyatida xalq afsona va rivoyatlari ilg'or va ulug'vor falsafiy g'oyalarni ifodalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shoir ba'zan afsonalar asosida g'oyaviy-badiiy falsafani yuzaga chiqaradi, ular zamiriga yashiringan umuminsoniy g'oyalar vositasida hayotiy muammolarni o'rta tashlaydi. Afsonalar mazmuni bilan zamon hodisotlarini qiyoslab, yangicha ijodiy izlanishlar qiladi. Diniy afsonalar mag'ziga yangicha ruh bag'ishlaydi.

Hozirgi o'zbek she'riyatida folklor an'analaridan mohirona foydalanish ming yillar davomida xalq ma'naviyatining yuksalishiga bebaho manba bo'lgan xalq og'zaki ijodining qadr-qimmati abadiyligini, yoshlarni vatanparvarlik, qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda hamma zamonlarda betakror omil ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

SIYOSIY ADABIYOTLAR

- 1.1. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 488 b.
- 1.2. Mirziyoev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi gazetasi. – Toshkent, 2017 yil. 4 avgust.
- 1.3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
- 1.4. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 40 b.

II. ALOHIDA NASHRLAR, MONOGRAFIYALAR, DARSLIKLAR

- 2.1. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b.
- 2.2. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b.
- 2.3. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1992. – 154 b.
- 2.4. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1959. – 316 b.
- 2.5. Amilova M. O'zbek sovet adabiyotida folklor an'analari. –Toshkent: Fan, 1990. – 122 b.
- 2.6. Asqarov S. "Maysaraning ishi" komediyasida folklor motivlari / O'zbek xalq ijodi. To'plam. – Toshkent, 1967. – B. 144-150.
- 2.7. Karimov N. Hamid Olimjon poeziyasida folklor traditsiyalari // O'zbek sovet adabiyoti masalalari. – Toshkent: Fan, 1959. – B. 184-199.
- 2.8. Jo'rayev M. Narziqulova M. Mif, Folklor va adabiyot. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – 184 b.
- 2.9. Jo'rayev M. O'zbek mavsumiy marosim folklori. Toshkent: Fan, 2008. – 292 b.

- 2.10. Jalolov G'. Hamza va folklor. – Toshkent: Qo'lyozmalar instituti bosmaxonasi, 1999. 84 b.
- 2.11. Zarifov H.T. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar. Jangovor otning qadimiy asoslariga doir // O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 4 kitob. Po'ltan shoir. – Toshkent: Fan, 1967. – 154 b.
- 2.12. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1974. – 383 b.
- 2.13. Mallayev N.M. So'z san'atining gultoji. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991. – 152 b.
- 2.14. Mo'minov G'. Otashqalb shoir. – Toshkent: 1970. – 40 b.
- 2.15. Madayev O, Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2003. – 208 b.
- 2.16. Nosirov O., Sobirov O. Xalq ijodi xazinas. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1986. – 138 b.
- 2.17. Nosirov R. Xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi. – Toshkent: Fan, 2006. –178 b.
- 2.18. Rahimjonov N. Davr va o'zbek lirikasi. – Toshkent: Fan, 1979. – 190 b.
- 2.19. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent: Fan, 2007. – 260 b.
- 2.20. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986. – 213 b.
- 2.21. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. –128 b.
- 2.22. Sobirov O. Oybek ijodida folklor. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1975. – 104 b.
- 2.23. Seyidov M. Azarbayjon lirik tafakkurining gaynaklari. – Baku: Yozuvchi, 1983. – 86 b.
- 2.24. Sayidov M.O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. – Toshkent: Fan, 1969. – 263 b.
- 2.25. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. Toshkent: Fan, 2011. – 240 b.
- 2.26. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. – 172 b.

- 2.27. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011. – 304 b.
- 2.28. Mirzaev T, Safarov O, Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 304 b.
- 2.29. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 299 b.
- 2.30. Hakimov M. Alisher Navoiy lirikasi va xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1979. – 196 b.
- 2.31. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. – Toshkent: Fan, 1971. – 176 b.
- 2.32. Hamdamova S. Xalq ijodi – ilhom chashmasi. Toshkent: Fan, 2009. – 64 b.

III. GAZETA VA JURNALLARDAGI MAQOLALAR

- 3.1. Amilova M. Asqad Muxtorning “Chinor” romani va folklor // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1974. – №2. – B. 7-12.
- 3.2. Davronova Sh. Tog‘ay Murod ijodida folklor an‘analari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2003. – №2. – B. 78-79.
- 3.3. Imomov K. Mif va yalmog‘iz // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2005. – № 5-6. – B. 34-38.
- 3.4. Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. – №2. – B. 54-59.
- 3.5. Imomov K. Etiologik afsonalar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2003. – №6. – B 43.
- 3.6. Imomov K. Zardo‘shiylik va epik motivlar genezisiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2009. – №6. – B 52-58.
- 3.7. Karimov N. Muhammad Yusuf va hozirgi zamon o‘zbek she‘riyati // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. – №5. – B. 16-19.
- 3.8. Rahimjonov N. M. Yusuf lirikasida folklor an‘analari va badiiy obrazlar individualligi // O‘zbek tili va adabiyoti, – Toshkent, 2005. – № 5. – B. 19-22.
- 3.9. Sarimsoqov B. Folklor va yozma adabiyot munosabatlariga doir izlanishlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. – №5. – B. 85-87.

- 3.10. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1980. – №4. – B. 37-45.
- 3.11. Safarov O. Folklordan ilhomlanib // Bolalik kuychisi. – Toshkent: Fan, 1978. – B. 100-158.
- 3.12. Safarov O. Folklor va bolalar adabiyoti // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2003. – №6. – B. 20-26.
- 3.13. Turdimov Sh. Ro‘mol ramzining semantikasi haqida // Adabiy meros. – Toshkent, 1985. – №3. – B. 94.

IV. DISSERTATSIYA VA AVTOREFERATLAR

- 4.1. Asqarov S. Yigirmanchi yillar o‘zbek sovet poeziyasida folklor traditsiyalari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 1966. – 177 b.
- 4.2. Jumaniyozov B. O‘zbek xalq eposida yalmog‘iz obrazi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent. 1996. – 25 b.
- 4.3. Jalolov G‘. Hamza va xalq og‘zaki ijodi (“Maysaraning ishi” komediyasi aspektida): Filol. fanlari d-ri ... diss. – Toshkent, 1961. – 352 b.
- 4.4. Mo‘minov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiyotida folklorizm: Filol. fanlari d-ri ... diss. – Toshkent, 1994. – 287 b.
- 4.5. Qayumov O. O‘zbek folklorida pari obrazi: Filol fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 1999. – 171 b.
- 5.6. Hayitov A. 90-yillar o‘zbek lirikasida an‘ana va shakliy izlanishlar: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 16 b.

V. BADIY ADABIYOTLAR

- 5.1. Sayyid S. Kuydim. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1994. – 160 b.
- 5.2. Sayyid S. So‘z yo‘li: Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2008. – 384 b.
- 5.3. Sayyid S. So‘z yo‘li: Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2008. – 384 b.
- 5.4. Suvonova J. Tillaqosh. – Samarqand: Sug‘diyon, 1992. – 48 b.
- 5.5. Suvonova J. Yig‘layotgan ohu. – Samarqand: So‘g‘diyon, 1993. – 52 b.

- 5.6. Xudoyberdiyeva H. Yo‘ldadirman. – Toshkent: Sharq, 2006. – 493 b.
- 5.7. Shoda-shoda marvarid: O‘zbek xalq qo‘shiqlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – 416 b.
- 5.8. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 288 b.
- 5.9. Yusuf M. Biz baxtli bo‘lamiz. – Toshkent: Nihol, 2008. – 192 b.
- 5.10. Elbek. Ashulalar to‘plami. – Samarqand, 1935. – 67 b.
- 5.11. Hamdamov U. Tangriga eltuvchi isyon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 100 b.
- 5.12. Hamdamov U. Atirgul. – Toshkent: Sano-standart, 2005. – 224 b.
- 5.13. O‘zbek xalq maqollari. 2 tomlik. – Toshkent: Fan, 1987. – 366 b.
- 5.14. Qutbiddin A. Xayol kechasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 32 b.